

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

UDK 811. 512. 133.

Saidahmedova Nigora Sulaymonovna

**Namangan viloyati agiotoponim va
ekklezionimlarining sotsiolingvistik tadqiqi**

5A220102 – Lingvistika (o'zbek tili)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

**Uluqov Nosirjon,
filologiya fanlari doktori**

Namangan – 2014

M u n d a r i j a

Kirish.....	4
1-bob. Namangan viloyati agiotoponim, ekklezionimlari va ularning tadqiqi	9
1.1. Agiotoponim va ekklezionimlar haqida tushuncha	9
1.2. Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlarining o'rgani- lishi	20
I bob bo'yicha xulosalar	24
2-bob. Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlarining leksik-semantik va sotsiolingvistik xususiyatlari	25
2.1. Agiotoponim va ekklezionimlarning lisoniy shakllanish xususiyatlari va tabiiy-geografik nomlar.....	25
2.2. Tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy agiotoponimlar, ekklezionimlar va ularning sotsiolingvistik xususiyatlari	32
II bob bo'yicha xulosalar	33
3-bob. Namangan viloyati agiotoponim, ekklezionimlarining etimologik structural xususiyatlari	38
3.1. Ayrim agiotoponim va ekklezionimlarning etimologik tahlili	38
3.2. Agiotoponim va ekklezionimlarning struktural tahlili	54
III bob bo'yicha xulosalar	60
Umumiy xulosalar.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar.....	63
Ilova. Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlari ro'yxati	68

Kirish

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi. Prezidentimiz I.A. Karimov to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi".¹ Bu fikrlar, albatta, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, falsafiy mushohadasi va qarashlari mahsuli bo'lgan joy nomlari – toponimik merosga ham taalluqlidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, uzoq davom etgan mafkuraning qattiq tazyiqiga qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan–avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasidagi muhim vazifa bo'lib qoldi.

Toponimlar, xususan, uning asosiy turlaridan biri bo'lgan mozor, qabriston, masjid, ziyoratgoh nomlari – agiotoponim va ekklezionimlar hudud tarixi, geografiyasi, tabiati, etnografiyasi, aholisining etnik tarkibi, yashash tarzi haqida darak beruvchi lisoniy xazinadir.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hukumatining yangi toponimik siyosati, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotda amalga oshirilgan islohotlar natijasida agiotoponim va ekklezionimlarni to'plash, o'rganish imkoni tug'ildi. O'rni kelganda shuni ham aytmoqchimanki, Namangan shahrining markazini ham aniq belgilab, shu yurtning ulug' siymolarini yodga solib istirohat bog'i tashkil qilsak, o'ylaymanki, maqsadga muvofiq bo'lur edi.²

Mening sizlarga, sizlar orqali butun Namangan ahliga qaratilgan tilagim va da'vatim shuki, kelinglar, aziz do'stlarim, mana shu tabarruk yurtga munosib bo'laylik, uni ulug'laylik, ota-bobolarimizdan meros qolgan noyob boyliklarni

¹ Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008. — Б. 29-30.

² Каримов И. А. Қонун ва адолат устуворлиги эркин ва фаровон ҳаёт кафолатидир// Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. — Тошкент: Ўзбекистон, 2005. — Б. 27.

bizlardan ko'ra kuchli, dono, bilimli va albatta, baxtli bo'ladigan kelgusi avlodlarga yetkazaylik.¹

Viloyatimizdan yetishib chiqqan ilm-fan yo'lida xizmat qilgan ko'plab alloma ajdodlarimizni sanab o'tishimiz mumkin. Jumladan, Ahmad Farg'oniy, Bob Farg'oniy, Asiriddin Axsikatiy, Mavlono Poyanda Oxun Axsikatiy, Mahdumi A'zam Kosoniy, Mavlono Lutfilloh, Axsikatiylar, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Ibrat, Hilvatiy, Munshiy Kosoniy, Sayyid Muhammad Tohir ibn Abulqosim, Mazjub Namangoniy, Nodim Namangoniy, Usmon Nosir, Turg'un Po'lat, Muhammadsharif So'fizoda, Rafiq Mo'min, Chustiy va ko'plab nomlarni tilga olishimiz mumkin.

Milliy istiqlol mafkurasining poydevori bo'lgan tarixiy merosimizni o'rganish jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishning asosiy shartlaridan biridir. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, «Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tariximiz bilan qurollantirishimiz zarur, Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur».

Ma'lumki, diyorumiz jahon tarixi va sivilizatsiyasining eng qadimiy maskanlari va markazlaridan biridir. Respublika hududida saqlanib qolgan yuzlab bebaho arxeologik, me'moriy va yozma yodgorliklar, amaliy san'at va xalq ijodiyati namunalari, ularning barchasi xalqimizning boy va betakror tarixiy – ma'naviy merosidir.

Namangan viloyatida 250 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud.²

“O'zbek xalqi yaratgan va milliy bisotimiz bo'lib qolgan noyob tarixiy yodgorliklarni saqlab qolish va ta'mirlash – ma'naviy dasturimizning juda muhim qismidir. Ushbu milliy boylik bizga ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan, binobarin, biz uni ko'z qorachig'idek avaylab asrashimiz va kelajak avlodlarga

¹ Каримов И. А. Қонун ва адолат устуворлиги эркин ва фаровон ҳаёт кафолатидир// Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б. 36.

² Қаранг. Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган, 2013. – 116

topshirishimiz lozim”, – dedi Prezident I.A.Karimov Oliy Majlisning birinchi sessiyasida soʻzlagan nutqida.

Tarixiy meros milliy istiqlool mafkurasining poydevoridir. Tarixiy va madaniy merosimizga boʻlgan eʼtiborni kuchaytirish maqsadida 2001 yil 30 avgustda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasining «Madaniy meros obʼektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish toʻgʻrisida» gi Qonuni qabul qilindi.

Shu bois Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlarini sotsiolingvistik tadqiqiga doir mazkur magistrlik dissertatsiyasi dolzarblik kasb etadi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Hozirga qadar Namangan viloyati toponimiyasi materiallari, xususan, agiotoponim va ekklezionimlari toʻla toʻplanmagan, A. Muhammadjonov, S. Qoraev, N. Oxunov, A.Aliev, A.Faxriddinov, S.Tulakov,¹ va boshqalarning ayrim toponimlarga doir maqolalarini, T.Numonov, B. Turdaliev, A. Haydarov-larning² hudud toponimiyasi materiallariga doir lugʻatini, N. Uluqovning³ gidronimlar tadqiqiga bagʻishlangan dissertatsiyasidagi ayrim qaydlarni eʼtiborga olmaganda ligvistik nuqtai nazardan monografik tadqiq etilmagan.⁴

¹ Қаранг. Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 23 с. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 59 б.; Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 85 б. – Қўкон группа районларининг топонимлари. – Ўзбек тилшунослигининг айрим масалалари. – Тошкент, 1979. – Б.99-105.; – Баъзи бир географик терминлар асосида вужудга келган топонимлар. – Тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1979. – Б.158-163.; – Жой номларига яширинган маъно // Тил ва адабиёт таълими, 1999. - №1. – Б.26-30; Узоқов Ё., Алиев А. Наманган топонимикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1966. – Б. 91. Қораев С. Наманган вилояти топонимлари // Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б.91-94. . Фахриддинов А. Ахсикент сўзи ҳақида // Ўзбек тилининг лексик-семантик ва грамматик хусусиятлари масаласига доир. – Наманган, 1995. – Б.111-115.Муҳаммаджонов Қ., Фахриддинов А. Яна Наманган топонимининг этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992, 6-сон. – Б. 53-54.

² Қаранг. Турдалиев Б., Нуъмонов Т., Ҳайдаров А. Наманган вилояти топонимларидан материаллар. – Наманган, 1995. – Б. 105-121.

³ Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010.

⁴ Жамоа. Наманган туманининг ўтмиши ва бугуни. – Тошкент: Университет, 1996. – 150 б.; Қирғизов Ю., Акрамов Т. Бир ўлкаки... (Янгикўрғон тумани тарихидан лавҳалар). – Наманган, 1996. – 222 б.; Жамоа. Чортоқ тумани тарихи. – Тошкент: Университет, 1995. – 222 б.; Иномов Ш. Попим — саховатли юртим. – Наманган, 1996. – 94 б.; Жамоа. Учқўрғон тумани (маълумотнома). – Учқўрғон, 1995. – 164 б.; Жамоа. Чуст тумани тарихи. – Чуст, 1995. – 180 б.; Сайхун, Содик. Бугун кечанинг эртаси. – Тўрақўрғон, 1992. – 48 б.; Раҳимова М.В. Косонсой тарихидан лавҳалар. – Косонсой, 1996. – 40 б.; Абдурахмонов. М. Задарёнома. – Жомашўй, 1992. – 48 б.

Tadqiqotning ob’ekti va predmeti. Mustaqil izlanishlar, dialektologik ekspeditsiyalar asosida to’plangan 500 dan ziyod Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlari dissertatsiyaning tadqiq ob’ekti hisoblanadi.

Agiotoponim va ekklezionimlarning tarixiy manbalari, nominativ-motivatsion, lug’aviy-ma’noviy xususiyatlari, strukturasi va yasalish modellari ishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlarining tarixiy hamda zamonaviy shakllarini, variantlarini to’plash hamda ularni sotsiolingvistik tadqiq etish dissertatsiyaning asosiy maqsadidir.

Ishning mavzusi mohiyati va maqsadidan kelib chiqib, tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo’yildi:

1. Agiotoponim va ekklezionim tushunchalarini izohlash, ular sirasiga kiradigan obe’ktlarni belgilash.
2. O’zbek tili toponimikasidagi agiotoponim va ekklezionimlar tadqiqiga doir ishlar tahlilini berish.
3. Agiotoponimik va ekklezionimik indikatorlarni izohlash.
4. Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlarining nomlanish tamoyili va motiviga ko’ra, ya’ni lug’aviy- ma’noviy tasniflash.
4. Agiotoponim va ekklezionimlarning tarixiy-etimologik, xronologik jihatdan izohlash.
5. Agiotoponim va ekklezionimlarning struktural va yasalish modellariga ko’ra tahlil qilish.

Tadqiqotning metodlari. Ishda O’zbekiston Respublikasining til siyosati, jumladan, toponimik siyosati: joy nomlarini tartibga solish, o’rganish bo’yicha qabul qilgan qaror va farmonlari hamda «Davlat tili haqida»gi Qonun talablariga tayanilgan holda ish ko’rildi.

Nazariy masalalar tadqiqida jahon toponimikasi, jumladan, turkiy toponimika, xususan, o’zbek toponimikasidagi tadqiqotlardan, ulardagi nazariy-ilmiy metodologik xulosalar va tadqiq usullaridan foydalanildi.

Ishda qiyoslash, lug'aviy-ma'noviy, nominativ va motivatsion, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O'zbek toponimikasida ilk bora Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlarini nomlanish tamoyili, lug'aviy-ma'noviy xususiyatiga ko'ra tasnifi va tavsifi berildi, sotsiolingistik aspektda tadqiq etiladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya xulosalari va tadqiq usullaridan boshqa hududlar agiotoponim va ekklezionimlarini o'rganishda, o'zbek toponimikasiga oid darslik va qo'llanmalar yozishda, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlari bo'yicha maxsus kurslar o'qishda, shuningdek, geografiya fakultetlarida «Toponimika» fanini o'qitishda, tarix fakultetlarida «Tarixiy o'lkashunoslik», akademik litsey va maktablarda joy nomlariga doir mavzularni, tarix, geografiya fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Ishning sinovdan o'tishi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida yig'lishi (2014-yil 22-aprel) da muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot ishining asosiy mazmuni NamDU, SamDU ilmiy to'plamlarida va "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida e'lon qilingan 5 ta maqolada o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar va ilova tarzida berilgan Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlarining umumiy ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 80 bet.

1-bob. Namangan viloyati agiotoponim, ekklezioneimlari va ularning tadqiqi

1.1. Agiotoponim va ekklezioneimlar haqida tushuncha

Onomastikada muqaddas hisoblanuvchi narsalar, ob'ektlar, shaxslar atoqli oti **agionimlar** (yunoncha. *agio* – *muqaddas* + *onoma* – *atoqli ot*) deb yuritiladi. Agionimlar asosida yuzaga kelgan joy nomlari **agiotoponimlar** hisoblanadi. Demak, **agiotoponim** (yunoncha. *agio* – *muqaddas*, *toponim* – *joy nomi*) joylarning agionimdan yasalgan atoqli otlaridir.¹

Mozorlar, qabristonlar va mana shu tipdagi muqaddas qadamjoylarning atoqli nomlari esa **nekronimlar** deb yuritiladi.² Masalan, *Sangmozor*, *Yakkatol*, *Sumbulmozor* (Chust t.), *Pistamozor*, *Oqtepa*, *G'arib* (Uychi t.), *Langarbobo*, *Childuxtoron*, *Shahidon*, *Yandama*, *Olchinmozor* (To'raqo'rg'on t.), *Bo'ritepa*, *Sho'rtepa*, *Do'ngtepa* (Nor. t.), *Go'rmiron* (Kos. t.) kabi.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.³ Bu fikrlar, albatta, ota-bobolarimizning, xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, falsafiy mushohadasi va qarashlari mahsuli bo'lgan joy nomlari – toponimik merosga, Jumladan, agiotoponim va nekronimlarga ham taalluqlidir.

Keyingi yillarda olib borilgan geografik tadqiqotlarda nomlarning ekologik funksiyasiga e'tibor qaratilmoqda. Qo'yilgan nom shu joyni, mahalla yoki ko'chani, ariq yoki soyni, tog' yoki tepalikni ilohiylashtirib, u yerdagi tabiat komponentlarini muhofaza qilishga, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishga, aholi maskanlarida sokin va osoyishta muhitni yaratishga yordam beradi. Bunday

¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 11.

² Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.11.

³ Каримов И. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 29-30.

diniy-huquqiy muhofaza usulini qo'llab, ona tabiatni asrashga o'lkamizda shakllangan yuksak etnoekologik madaniyat sifatida qaralmog'i lozim. Toponimlar tarkibida "aziz", "bobo", "go'r", "mozor", "ota", "pir" so'zlaridan birining qo'llanishi asosida yaratilgan toponimlar manzilni ko'rsatib berishdan tashqari ekologik vazifani ham bajaradi.¹

Nekronimlar ana shunday xususiyatga ega bo'lib, lingvoekologik vazifa ham bajaradi, o'zi nomlayotgan hududning muqaddasligini ifodalash barobarida, uni e'zozlanishi va qadrlanishini, keyingi avlodlarga yetishini ta'minlaydi. Sobiq tuzum davrida mozor, qabriston, ziyoratgoh va boshqa bir qator muqaddas deb hisoblanuvchi joy nomlari to'planmadi, nomshunoslik nuqtai nazaridan deyarli o'rganilmadi. Mustaqillik tufayli bunday muqaddas ob'ektlarga e'tibor qaratila boshlandi, ta'mirlandi, obodonlashtirildi, ayrimlari qayta tiklandi, yana asliga qaytarildi. Har bir nekronim mahalliy aholi tarixini, yashash tarzini, etnografiyasini, etnik tarkibi va madaniyatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bois ham nekronimlarni to'plash, kartotekasini tuzish, tarixini, lisoniy xususiyatlarini: nomlanish motivlari, imlosi va variantlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Biz hozirga qadar Namangan viloyati bo'yicha 400 ga yaqin nekronimlarni to'pladik. Bu viloyat toponimiyasida nekronimlar salmoqli o'rin tutishidan dalolat beradi. Viloyat nekronimlari tarkibida asosan *mozor*, qisman *qabriston*, *maqbara*, *sag'ana* kabi indikatorlar kuzatiladi: *Buloqli mozor*, *Changalmazor* (Nor. t.), *Qizmozor* (To'ra. t.), *Toshmozor*, *Shahidmozor* (Uychi t.), *Langarmozor* (Chortoq t.), *Buvichamozor*, *Duxonamozor*, *Jarmozor* (Chust t.) kabi.

Ayrim tadqiqotchilar nekronimlar sirasiga mozor, qabriston nomlari bilan bir qatorda masjid, turli ziyoratgoh nomlarini ham kiritadilar,² biroq bunga qo'shilib bo'lmaydi. Masjid nomlari **ekklezionimlar**, ziyoratgoh nomlari esa **agiotoponimlar** guruhiga kiradi.³ Manbalarda barcha nekronim turlarini xalq

¹ Охунов Н., Ахмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фарғона, 2010. – Б. 6.

² Қаранг. Аслонов А. С. Шофиркон тумани микропонимиясининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс.. автореф. – Тошкент, 2005. – Б. 15.

³ Бегматов Э., Улуков Н. Ўша лугат, 11-, 92-бетлар.

tomonidan e'zozlanishi, qadrlanishi, muqaddas bilib ziyorat qilinishi bois **agiotoponimlar** guruhiga kiritish kuzatiladi.

Ekklezionimlar va agiotoponimlar tarkibida mozor, qabriston, dahma, ziyoratgoh so'zlari qo'llanadi.

Qabr so'zi etimologik jihatdan arabcha bo'lib, *go'r*, ya'ni *odam o'ligi* (murdasi) *ko'miladigan joy* ma'nosini anglatadi. *Chqohorli mozorda xo'p mehribon, xo'p dilkash odam – Boboqul otaning qabri bor.*

S. Anorboev, Oqsoy.¹

Qabr asosidan *qabriston* oti yasalgan. *Qabriston* oti arabcha *qabr* va forscha *-iston* qo'shimchalaridan tarkib topgan bo'lib, *qabrlar*, *go'rlar makoni*; *mozor*, *go'riston* demakdir. Demak, *marhumlar dafn qilinadigan maxsus joy*; *go'riston*. *shu kuni otasining mazoriga borib, sham yoqdi, qabristondagi shayxlarga nazr berdi.* Mirmuhsin, Yo'qolgan javohir.²

Majmua bu arabcha so'z maçmi'at (un) shakliga ega; o'zbek tiliga cho'ziq *i* unlisi *u* unlisiga fathali ayn tovushini *a* tovushiga almashtirib, so'z oxiridagi *t* tovushini tashlab qabul qilingan: maçmi'at – majmua; asli ko'p ma'noli *çata'a* fe'lining "to'pladi" ma'nosi bilan hosil qilingan II bob majhul nisbat sifatdoshidan *-at(un)* qo'shimchasi bilan yasalgan ot bo'lib "to'plam", "to'plangan asarlar" ma'nosini anglatadi.³

Demak, *majmua* ma'lum tartibda to'plangan matnlar, ma'lumot va shu kabilar yig'indisi; to'plam. *Qonunlar majmuasi*.

Mazkur so'z toponimiyada, xususan, agiotoponimiyada ham qo'llanishi kuzatiladi. Majmua bir necha joy nomlari guruhi, to'plami. Masalan, Namangan shahridagi mashhur *Mulla Bozor Oxund yodgorlik majmui*.

Avliyoning haqiqiy ismi Xoja Ubaydulloh bo'lib, fazilatlari, kashfu mo'jizalari bisyor bu kishi Poshshaxoja Domullo Bozor Oxund nomi bilan mashhur edi. Bul zotning Allohga bo'lgan muhabbati shu qadar kuchli ediki, u

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, V жилд. – Б. 198.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, V жилд. – Б. 198.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этималогик луғати. – Тошкент: Университет, II том. – Б. 222.

Haqning nomini zikr etar ekan, suhbatdoshlari ko'z o'ngida og'zidan olov sachrar edi.

Mulla Bozor Oxund yodgorlik majmui Namangan shahrining Labbaytog'a dahasi, Kurashxona mavzeida – Namangansoy sohilida joylashgan.

Majmua buyuk shoir Rahimbobo Mashrabning ustози, XVII asrning yirik mutasavviflaridan biri, olim, shoir, shayx, valiy Xoja Ubaydulloh ibn Sulton Muhammad Bobur Qoraxon Mulla Bozor Oxund nomi va yashagan joyi bilan bog'liqdir.

Muqaddam bu yerda mavjud bo'lgan pishiq g'ishtdan tiklangan madrasa va odimgina maqbara XX asrning 30-yillarida buzib tanlangan edi. 1990-yilda mahalla ahli masjid qurilishini boshlab yubordi.

1993-yilning sentyabr oyida Namangan viloyat va shahar hokimliklari bu tarixiy joydagi me'morchilik majmuini qayta tiklash yuzasidan qaror qabul qildilar. Shu yilning 25-dekabrida majmuaning asosiy darvoza qismiga qoziq qoqiladi.

Qurilish ishlari 1994-yilning 18-mayida nihoyasiga yetkaziladi.

Majmua 3 qismdan iborat:

1. **Jome' masjidi.** Asosiy katta xona xonaqoh yerto'lali, pishiq g'isht vat emir-beton paneldan qurilgan. O'lchami 30x24 metr. Sarh 720 kvadrat metr. Xonaqohning uch tomoni ayvon. Ustunlar va peshtoqi milliy bezaklar berib pishiq g'ishtdan tiklangan. O'lchami 36x6 metr va 24x6 metr. Sathi 576 kvadrat metr. Minoraning "Alloh Muhammad" degan yozuvlari bor.

Masjidi 3 ming namozxonaga mo'jallangan.

2. **Mulla Bozor Oxund maqbarasi.** U mutafakkir dastlab dafn etilgan qabrni o'z ichiga olgan holda qurilgan. Asosining o'q chizig'i 6 metr. Inshootning umumiy balandligi 24 metr. Dastlabki 8 metri 5 qirrali ko'pburchak shaklida tiklanib, keyin 7 qirrali ko'pburchak shaklida prizma qilib qurilgan. Uning ustiga doira shaklidagi qism va diametri 5 metrli gumbaz barpo etilgan.

Maqbara qurilishi va tuzilishi islomdagi shariat, tariqat qonunlarini ramziy tarzda ifoda etadi. Masalan, maqbaraning dastlabki 5 qirrali qismi islomdagi 5

shartni, keyingi 7 qirrali qismi iymondagi 7 shartini ifodalaydi. Doira shaklidagi qismga "Bismillahir rohmahir royim, Alloh" deb yozilgan. Xuddi shu tomonini e'tiborga olinsa, maqbara Markaziy Osiyoda shu tamoyillar asosida qurilgan yagona yodgorlik hisoblanadi.

Yodgorlik pishiq g'isht, tomir-beton, sopol koshinlar yordamida bunyod etilib, eshik va panjaralar yog'ochdan yasalgan. Gumbaz metallardan ishlanib, sirtiga maxsus qorishmali buyoq berilgan. Xumdonda pishirilib, so'ng o'rnatilgan.

Maqbara ichidagi Mulla Bozor Oxund qabriga "Xoja Ubaydulloh ibn Sulton Muhammad Bobur Qoraxon Mulla Bozor Oxund. 1079-yilda vafot etgan (milodiy 1668-yil)" deb yozilgan.

Mulla Bozor Oxund yodgorligi hovlisining o'tasida qadimda usti yopiq hovuz-gumbazli sardoba bo'lib, u ham XX asrning 30-yillarida vayron etilgan edi. Qurilish paytida uning o'rnida diametri 10 metrli 8 qirrali hovuz barpo qilindi.

3. Asosiy kirish darvozasi. Majmuaga kirish joyida pishiq g'ishtdan qurilgan 3 gumbazli.

Namangan viloyat va shahar hokimliklari tashabbusi bilan 2001-yil mart oyi boshlarida boshlangan ta'mirlash ishlari Mulla Bozor Oxund yodgorlik majmuiga navqironlik, ko'rk-tarovat bag'ishladi. Milliy qadriyatlarimizga mehri baland namanganliklar ta'mirlash ishlarini yana bir go'zal qadriyat hashar yo'li bilan bajarishdi.

Demak, majmua avliyo Mulla Bozor Oxund nomiga nisbat berib, nomlanganligiga ko'ra antroponimlar guruhiga kiradi, o'z ichida maqbara, masjid, uch gumbazli darvozani o'z ichiga olganligiga ko'ra majmua hisoblanadi va agiotoponimlar turkumiga kiradi.

Masjid so'zi arabcha mas'jid(un) shakliga ega; sajda fe'lining "*sig'indi*" ma'nosi bilan yasalgan ot bo'lib, "*musulmonlarning jam bo'lib namoz o'qiydigan, Ollohga sig'inadigan ibodatxonasi*" ma'nosini anglatadi. So'zlashuv tilida *machit* variantiga ham ega.¹

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этималогик луғати. – Тошкент: Университет, II том. – Б. 240.

Demak, masjid musulmonlarning jam bo'lib, namoz o'qiydigan ibodatxonasi.¹ Masjid ibodatxona so'zi bilan ma'nodosh.

*Shayx agar masjidqa, men mayxonag'a borsam, ne tong,
Ey Navoiy, har kishiga Chora yo'q mu'todidin.*

Xazoyinul-maoniy, II b-259.

Forscha eskirgan kitobiy *mug'* so'zi polisemantik bo'lib, quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. Zardusht diniga mansub kishi; otashparast; otashparastlar ruhoniysi; kohin.

2. ko'chma poet. Mayxona egasi, mayfurush.²

Mug' – mug', majusiy, otashparast, o'tga cho'qinuvchi; mayfurush:

Ammo aning nisbati bobida ixtilof ko'pturkim mug' debtor...

Tarixi mulki ajam, XIV-185.³

Mug' so'zi mug'xona, *Mug'tepa* kabi nomlar tarkibida kuzatiladi. *Masalan, Mug'tepa (Mug'qal'a)* Kosonsoy tumanidagi qadimgi Farg'ona podsholarining yozgi qarorgohi sifatida tarixga kirgan miloddan avvalgi I asrda Kosonsoyning chap sohilida strategik jihatdan qulay tabiiy tepalikda joylashgan, ya'ni qadimgi Koson shahriga asos bo'lgan tepalik.

Birinchi bo'lib, Koson vayronalarini 1895-yilda N. Sherbina-Kramarenko kelib ko'rgan. U o'z hisobotida boy arxeologik qimmatga ega bo'lgan materiallar olish mumkinligini qayd etgan.

Qadimgi Koson qadimda Kushon deb yuritilgan. Kosondagi ilmiy izlanishlarni 1946-yilda A.N.Bershtam davom ettirgan. Olimning fikricha, shaharda madaniy qatlamlar balandligi 10 metrni tashkil etadi. Mug'tepaning sakkizta joyida ilmiy tekshirish ishlari olib borilgan. A.N.Bernshtam Koson eramizdan avvalgi davrdagi harbiy istehkom, madaniy markaz shahar poytaxti bo'lgan, degan xulosaga keldi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, II жилд. – Б. 550.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, II жилд. – Б. 662.

³ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1983, II том. – Б. 406.

Kosonsoyni o'rganish 1951-1983-yillarda Y.A.Zadneprovskiy tomonidan olib borildi. Olim o'z ilmiy izlanishlarida shahar madaniy qatlamlarining eramizdan avvalgi II-I asrlar davrini, ya'ni antik davrini o'rgandi. Qazish ishlari natijasida qadimgi shaharning minorasi qisman ochildi. Y.A.Zadneprovskiy Koson shahri eramizdan avvalgi Davan podsholigining poytaxti bo'lgan va u IV-VII asrlarda Farg'ona davlatining markazi hisoblangan, degan fikrni olg'a surdi.

Hozirgi kunda Kosonsoy shahrida *Mug' qal'a arxeologik yodgorligidan* tashqari IX–XVII asrlarda yaratilgan *Shayx Sulton Jaloliddin Somoniyning G'o'zapoya mozor masjidi majmui, Jome' masjidi, Sadpiri Komil masjidi, Gungalak yer osti hammomi, Yusupxon Eshon maqbarasi* va boshqa bir qator me'moriy obidalar mavjud. Albatta, ana shu nomlar muqaddas va azizligiga ko'ra agiotoponim va ekklezionimlar sirasiga kiradi.

Tepa asli “do'ng joy” degani. *Tepadan qaragan kishiga bu ariqcha ilon izidek... ko'rinar edi* (Ibrohim Rahim).

Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli *töpä, töpü* tarzida talaffuz qilingan; o'zbek tilida ö unlisi e unlisiga almashgan: *töpä > tepä*.¹

“O'zbek tilining izohli lug'ati” da tepa so'zining quyidagi ma'nolari qayd etilgan:

1. Yer sathidan baland, do'ng joy; tepalik, balandlik. *Shu tepalar nishabida kamarlar bor.* T. Murod, Ot kishnagan oqshom.

2. Umuman, biror joy, makonga nisbatan yuqoridagi joy, yer. *Tepadan qaragan kishiga bu ariqcha ilon izidek... ko'rinar edi* (Ibrohim Rahim).

3. Biror narsning yuqori qismi, usti. *Arizaning tepasiga imzo qo'ymoq.*

4. Ko'p miqdorda o'yilgan narsalardan hosil bo'lgan balandlik, do'nglik. Ko'k tepa.

5. Kishi ustidagi bo'shliq, osmon, falak; yuqori. *Samolyot tik tepaga ko'tarildi.*

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этималогик луғати (Туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 331.

6. Nisbatan yuqori qismda bo'lgan, joylashgan; ustki. *O'roz tepadagi qoziqdan do'mbirasini oldi..* Oybek, Tanlangan asarlar.

7. arxeol. Paxsadan ishlangan qadimiy inshootlarning xarobalari va ularni to'ldirgan madaniy qatlamlaridan hosil bo'lgan do'nglik.¹

Alisher Navoiy asarlarida *tepa* so'zi *yuqori*, *avval* ma'nolarini ham anglatgan:

Ammo qudrat ko'rguzub tepada bo'lg'an avlod va atbo'larin alarning adadi bila muvofiq biyobondin najot berdi.

Tarixi anbiyo va hukamo, 217.²

Toponimik manbalarda *tepa* indikator sanaladi, ya'ni bir qator qo'shma nomlar tarkibida kelib, *inshootlarning xarobalari va ularni to'ldirgan madaniy qatlamlardan hosil bo'lgan do'nglik*, *qabriston*, *muqaddas joy* ma'nolarida agiotoponim va ekklezionimlarning shakllanishida bir vosita sifatida qatnashadi.

Ziyoratgoh bu so'z tojik tilida arabcha *ziyosat* so'ziga "joy" ma'nosini anglatuvchi tojikcha *goh* so'zini qo'shib tuzilgan bo'lib, "ziyosat qilish joyi" ma'nosini anglatadi.³

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da *ziyosatgoh* (a+f. – *sig'iniladigan, ziyosat qilinadigan joy*) so'zining quyidagi ma'nolari berilgan:

1. Ziyosat qilinadigan muqaddas joy, tabarruk qadamjo (aziz-avliyolarning maqbarasi yoki tug'ilgan, yashagan joyi). *Kecha-kunduz ziyosatgoh gavjum bo'lar odamga.*

2. Kishilar ko'p boradigan, yig'iladigan mo'tabar joy.⁴

Maqbara bu arabcha so'z maqbarat(un) shakliga ega; O'zbek tiliga oxiridagi t tovushini tashlab qabul qilingan: maqbarat – maqbara; "*ko'mdi*" ma'nosini anglatuvchi *qabra* fe'lidan yasalgan ot bo'lib, arab tilida "*qabriston*" ma'nosini, o'zbek tilida esa "*qabr ustiga qurilgan yodgorlik binosi*" ma'nosini anglatadi.⁵

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, IV жилд. – Б. 66.

² Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1984, III том. – Б. 222 .

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этималогик луғати. – Тошкент: Университет, 2003, II том. – Б. 146.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, II жилд. – Б. 148

⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этималогик луғати. – Тошкент: Университет, 2003, II том. – Б. 257.

Maqbara arabcha soʻz boʻlib, *qabriston*, *goʻriston* degan maʼnoni anglatadi. Qabr ustiga qurilgan meʼmoriy inshoot yoki tosh tobut; dahma, sagʻna. *Ismoil Somoniy maqbarasi*.¹

Mozor (fors-tojikcha – goʻr, qabr; muqaddas, ziyoratgoh joy)

1. Oʻlgan kishilar dafn etiladigan joy; qabriston. *Qishloq mozori*.

2. Goʻr, qabr. ...*buzishyapti ekan. Hoziroq bor. Otangning mozorini kavla. Suyaklari xor boʻlib ketmasin*. E. Raimov, Ajab qishloq.²

Maʼnolari izohlangan mozor, qabriston, maqbara, ziyoratgoh, dahma, masjid soʻzlari toponimiyada agiotoponimlar, nekronimlar va ek-klezionimlar tarkibida indikator boʻlib, turli maʼnodagi luhaviy birliklarni ana shunday obʼektlarning atoqli otlarini ifodalashga xoslaydi. Bu ularning tildagi qoʻshimcha onomastik vazifalaridir.

Ilmiy manbalar va tadqiqotlarga tayangan holda Namangan viloyati nekronimlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1) **mozor nomlari:** kabi *Avliyo Qoraxonbuva* (Chortoq t. Alixon qyu), *Ahmadbob* (CHust t. Gʻova q.), ;

2) **qabriston nomlari:** *Baland Gurtepa* (Mingbuloq t. Gurtepa q.), *Goʻrmiron* (Kosonsoy t. Tergachi q.) kabi;

3) **sagʻana nomlari:** *Munchoqtepa sagʻanalar majmui* (Pop sh.) kabi;

4) **maqbara nomlari:** *Sulton Sayyid Bobo maqbarasi* (Chortoq t. Koroskon q.), *Sulton Vaysil Qaran* (CHortoq t. Bogʻiston q.), *Mulla Bozor Oxund maqbarasi* (Namangan sh.) kabi;

5) **mugʻxona nomlari:** *Boʻsmatbobo, Chorsavoyzinbobo* (Pop t. Chodak q.) kabi.

Nomlarning takroriyliigi masalasiga kelsak, 3 ta *Qizmozor* (Toʻraqoʻrgʻon tumanida 1ta, Uychi tumanida 2 ta), 3 ta *Shahidmozor* (Uychi t., Chust t.), 2 ta *Birodarlik* (Uchqoʻrgʻon t. Yangier q., Qoʻgʻay q.) nekronimlari mavjudligi aniqlandi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, II жилд. – Б. 568.


² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, II жилд. – Б. 607.

Mozor, qabriston nomlari bilan atalgan suv ob'ekti nomlari **agiogidronimlar** guruhiga kiradi. Agiogidronim termini grekcha agio – «*muqaddas, ilohiy*» va gidronim – «*suv ob'ekti nomi*» ma'noli qismlaridan tarkib topgan.¹ Masalan, *Shahidmozor* (Nam. v. Norin t. U.Yusupov q.), *Azizbuloq* (Nam. v. Yangiqo'rg'on t. Buloqboshi q.), *Buvichaona bulog'i* (Chust t. kabi).

Ayrim mozor va qabristonlar o'zining xarakter-xususiyatiga mutanosib tarzda *tinchlik, osoyishtalik* semalarini ifodalovchi oddiy so'zlar bilan: *Mangulik, Xotira* (Norin t.), ba'zilar turli millat, elat, urug' vakillari dafn etilganligiga nisbat berish asosida: *Birodarlik* (Uchqo'rg'on t.), *Do'stlik* (Uychi t.) deya atalgan.

Bir qator nekronimlar boshqa tipdagi nomlarning, jumladan, qishloq, mahalla, ko'cha nomlari – oykonimlarning hosil bo'lishiga asos bo'lgan. Agionim va nekronimlardan hosil bo'lgan aholi manzillarining nomlari **agiooykonimlar, nekrooykonimlar** deb yuritiladi. Viloyat oykonimiyasida bir necha **agiooykonimlar, nekrooykonimlar** kuzatiladi. Masalan, *Bibiona* (Chust t.), *Daxiyaota* // *Daxyaota* (Uychi t.), *Langarbobo* (To'ra.t.), *Shomozor* (Pop t.), *Shohidon* (To'ra.t.), *Shahidmozor* (Nor.t.), *Sutlibuloq* // *Suttibuloq* // *Sutbuloq* (Yangi.t.), *Otakishi* (Yangi.t.), *Olchinmozor* (To'ra.t.), *Ko'kmozor* (Nor.t.), *Go'rmiron* (Koson.t.) kabi.

¹ Қаранг. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий – лисоний тадқиқи: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2010. – Б. 141.



2-rasm. Agiotoponim va ekklezionim turlari

1.2. Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlarining o'rganilishi

Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlari to'la to'planmagan va tarix, etnografik nuqtai nazardan u yoki bu darajada o'rganilgan. Bu borada I. Yu. Yusupov E. Mirzalievning tadqiqotlari mavjud. Mualliflarning “Namangan me'moriy obidalari sirlari” nomli kitoblarida Namangan me'morchiligi tarixi, *Axsikent, Atoullixon to'ra masjidi, Xo'jamning maqbarasi, Azizxo'ja eshon madrasasi va masjidichodak masjidi, Palosbon ota maqbarasi, Sirli masjid, Mulla Bozor oxund majmuasi, Zirkmozor ziyoratgohi* kabi viloyatning barcha tumanlaridagi mashhur me'moriy va madaniy yodgorliklar ham tarixiy, ham ma'rifiy-ma'naviy, ham me'moriy qurilishi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Ta'kidlash joizki, bu kitoblar ana shu ob'ektlarning tarixiy jihatdan o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Kitoblarda yodgorliklarning rasmlari ham berilgan. Unda qayd etilganidek, viloyatdagi madaniy va me'moriy yodgorliklarning miqdori 250 dan ortiq.¹

I. Yu. Yusupov E. Mirzalievlarning “Namangan shahri tarixidan lavhalar” kitobida Namangan shahrining nomlanish tarixi, o'tmishi, mashhur kishilari haqida fikr yuritib, “Namangan shahrining muqaddas ziyoratgohlari va me'moriy yodgorliklari” nomli qismida yuqorida keltirilgan kitobga qo'shimcha tarzda *Qodirxo'ja eshon uyi, O'n bir Ahmad ziyoratgohi* haqidagi ma'lumotlar kiritilgan va tarixi yoritilgan.² Mazkur kitoblar viloyat madaniy merosi haqidagi bilimlarni saqlanishida, boyishida va kelgusi avlodga yetishida muhim ahamiyatga ega.

Namangan viloyati madaniy merosi tadqiqida Chust “**Ajdodlar merosi**” viloyat jamoat fondining faoliyati ham diqqatga molik. Fond raisi Baxtiyor Ro'zinov rahbarligida Sohiba Rajabova, Yusufjon Ismoilov, Abdigapor Kosimovlar muallifligida kattagina “Namangan viloyati madaniy merosi” nomli kitob yozildi. Kitob “**Muqaddima**” va “**Arxeologik yodgorliklar**”, “**Me'moriy**

¹ Юсупов И. Ю. , Мирзалиев Э.Ю. Наманган меъморий обидалари сирлари. –Наманган, 2008. – 88 б.

² Юсупов И. Ю. , Мирзалиев Э.Ю. Наманган шаҳри тарихидан лавҳалар. –Наманган, 2010. –112 б.

yodgorliklar va muqaddas qadamjolar”, “Majmua va maqbaralar”, “Hammomlar”, “Hovli-joylar”, “Qabrtoshlardagi bitiklar” kabi 6 asosiy qismdan hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Unda viloyatdagi 200 dan ziyod majmualar, ziyoratgohlar, mozorlar, qabristonlar, dahmalar, tarixiy hammomlar, uy-joylar, toshlarga bitilgan arab yozuvidagi yodgorliklar haqida ma’lumotlar jamlangan. Xususan, madaniy yodgorliklarning joylashish o’rni, ayrimlarining barpo etilgan yili, tarixi, qurilish, bunyod etilish uslubi, hajmi, saqlanish holati, o’rganilish darajasi, kimyoviy tajribalarning natijalari kabi masalalar yoritilgan.¹ To’g’ri, ayrim ma’lumotlar dalillarni, asoslarni talab qiladi, ba’zilari juda jo’n.

Kitobning ahamiyatli jihatlari shundaki, unda barcha yodgorlik va obidalarning rasmlari berilgan. Ma’lumotlar tarix, geografiya, etnografiya, me’morlik, arxitektura, shaharsozlik, turizm, say yohlikka va boshqa soha hamda fanlarga oid. Bu izohlar, tahlillar viloyat tarixini o’rganishda qimmatli bo’lib, yana bir qancha tadqiqotlarga turtki bo’ladi.

Namangan viloyati hududidagi madaniy meros ob’ektlari soni va toifasi

№	Madaniy meros ob’ektlar nomi	Yangi aniqlangan ob’ektlar	Madaniy meros ob’ektlari toifasi		Jami
			Respublika ahamiyati molik	Mahalliy ahamiyatiga molik	
1	Arxeologik	10	136	-	146
2	Me’moriy va diqqatga sazovor joylar		12	103	115
3	Mahobatli san’at yodgorliklari	1	-	6	7
	Jami:	11	148	109	268


1-jadval.

¹ Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган, 2013. – 116 б.

Namangan viloyati madaniy merosi va yodgorliklarini o'rganishda Abdulla Jabborning xizmatlari ham katta. Muallifning "Namangan viloyati" nomli kitobining "Moziydan sadolar" nomli 4-bo'lim ana shu masala tadqiqiga bag'ishlagan. Unda 190 ziyod madaniy, arxeologik yodgorliklar: tepalik, mozor, qabriston, masjid, majmua, madrasa, uy va boshqalarni nomi keltirilib, ularning joylashish o'rni, tuzilishi, bunyod etilish tarixi, holati, nomlanishiga doir ayrim ixcham lug'at ma'lumotlar berilgan. Bu kitobda ham ancha tarixiy ma'lumotlar jamlangan. Biroq yuqoridagi manbalarga viloyatdagi barcha madaniy, me'morchilik obidalari, inson xotirasi bilan bog'liq ob'ektlar to'la kiritilgan deb bo'lmaydi. Xususan, viloyatdagi mozor, qabriston, ziyoratgoh, masjid va boshqalar nomi aks etgan deb bo'lmaydi.

Yuqorida nomi sanalgan inson muqaddas, qadrli deb biladigan madaniy, me'moriy, arxeologik, diniy yodgorliklar tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilmagan.

B. Turdaliev, T. Nu'monov, A. Haydarovlar tomonidan Namangan viloyati toponimiyasiga oid salmoqli materiallar to'plangan va alohida kitob holida nashr etilgan. Mazkur izohli lug'at xarakteridagi kitobda 450 ga yaqin Namangan viloyati toponimiyasiga oid qishloq, shahar, shaharcha, mahalla, ko'cha, dala, tepalik, maydon, suv ob'ekti nomlari atalish, leksik-semantik, grammatik, dialektologik jihatdan tahlil qilingan. Ana shu manbada toponimlar doirasida ayrim Temir mozori (Chust t.), Toshmozor (Kosonsoy t.), Tolmozor (Uychi t.), Ulug' ota mozori (Chust t. Olmos q.), Xasti mulla (Chust t. G'ova q.), Chakak mozor (To'ra. t.) kabi mozor, masjid nomlari izohi berilgan.



1-rasm. Agiotoponim va ekklezionimlarining o'rganishning ahamiyati

I bob yuzasidan xulosalar

1. Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionim ziyoratgoh, mozor, qabriston, majmua, masjid, madrasa kabi madaniy, me'moriy yodgorliklarning atoqli maxsus nomlaridir.
2. Agiotoponim va ekklezionimlar, bir qator nekronimlar boshqa tipdagi nomlarning, jumladan, qishloq, mahalla, ko'cha nomlari – oykonimlarning hosil bo'lishiga asos bo'lgan.
3. Agiotoponim va ekklezionimlarini o'rganish lingvistik, etnografik, tarixiy, geografik, madaniy, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega.
4. Kelgusida tarixchi, geograf va tilshunoslar hamkorligida Namangan viloyati madaniy, me'moriy obidalarining mukammal lug'atini yaratish dolzarb, muhim vazifalardan biridir.

2-bob. Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlarining leksik-semantik va sotsiolingvistik xususiyatlari

2.1. Agiotoponim va ekklezionimlarning lisoniy shakllanish xususiyatlari va tabiiy-geografik nomlar

Agiotoponim va ekklezionimlarning shakllanishi, avvalo, xalqning urf-odatlarini, anʼanalari bilan bogʻliq.

Insonlar boshqa toponimlar oʻzlari muqaddas deb hisoblaydigan mozar, qabriston, ziyoratgoh, masjid, madrasalarga nom (atoqli ot) berishda ularga xos biror xususiyatni, jihatni motiv qilib oladilar. Bu jarayonda obʼektlarning joylashish oʻrni, tuzilishi, shakli, ularni bunyod etgan shaxslarning nomlari, mazkur hudud atrofida oʻsadigan oʻsimliklar, daraxtlar, yashaydigan hayvon va jonzotlar motiv vazifasini bajaradi.¹

Obʼektlarni nomlashda nisbiylik, pozitivlik, negativlik tamoyil (printsip) lariga asoslaniladi. Bunday munosabat, albatta, agiotoponim va ekklezionimlarga ham xos.

Nomlashda obʼektning tabiiy-geografik xususiyatini yoki nomlanish uchun asos boʻlayotgan biror voqea-hodisani anglati olishga asoslanganlik qonuni **pozitivlik** (*lotincha positivus – musbatli, ijobiy*) **tamoyili** deyiladi. Chunonchi, pozitivlik tamoyili asosida yuzaga kelgan Buluqmozar (Nor.t.), *Daryoboʻyi masjidi* (Uchqoʻr. t.), *Jiydali mozar* (Pop t.) kabi agiotoponim va ekklezionimlarning orientirlovchi belgi - ularning buluq va daryo atrofida yoki jiyda koʻp oʻsadigan hududda joylashganligi. Koʻrinadiki, nomda suv obʼektiga xos maʼlum tabiiy reallik aks etgan.

Pozitivlik tamoyili asosida nomlashda obʼektga xos quyidagi tabiiy-geografik xususiyatlar asos qilib olinadi:

¹ Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филология фан. док. ... диссер. – Тошкент, 2010. – Б.

- 1) ob'ektning shakli;
- 2) ob'ektning hajmi, ko'lami;
- 3) ob'ektning miqdori;
- 4) ob'ekt atrofidagi o'simlik va daraxtlar;
- 5) ob'ekt joylashgan yerning rel'ef xususiyatlari;
- 6) ob'ekt bilan bog'liq turli voqea-hodisalar;
- 7) ob'ekt bilan bog'liq shaxs nomlari va boshqalar.

Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlarining salmoqli qismini pozitivlik tamoyili asosida yuzaga kelgan nomlar tashkil etadi. Masalan, birgina hududning tuproq xususiyatiga nisbatan nomlangan *Oqtepa* nomi deyarli viloyatning barcha tumanlarida uchragani kabi.

O'zbek toponimikasidagi lisoniy tasniflarga asoslangan holda viloyat agiotoponim va ekklezionimlarining nomlanish motivi va lug'aviy-ma'noviy xususiyatlariga ko'ra dastlab quyidagi ikki turga bo'lish mumkin:

1. Tabiiy-geografik belgi-xususiyatlar asosida nomlangan ob'ektlar.
2. Tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa omillar asosida nomlangan ob'ektlar.

Ob'ektga xos tabiiy-geografik belgi-xususiyatlar asosida yaratilgan gidronimlar:

- a) ob'ektning miqdori, soni bilan bog'liq nomlar;
- b) ob'ektning hajm xususiyati bilan bog'liq nomlar;
- c) tashqi ko'rinishi va shakliy tuzilishiga nisbat berish asosida yuzaga kelgan nomlar;
- d) ob'ektni xarakterlovchi narsa-buyumlar va hodisalarga nisbat berilgan nomlar;
- e) fitotoponimlar;

- f) ob'ekt yer qatlamining ustki tuzilishi, tuproqning tarkibiga bog'liq nomlar;
- g) geomorfologik nomlar;
- h) zootoponimlar va boshqalar.

1. Ob'ektning miqdori, soni bilan bog'liq agiotoponim va ekklizionimlar. Bunday ob'ektning miqdorni, son-sanog'ini e'tiborga olish asosida nomlangan bo'ladi: *Beshtepa*, *Qo'shtepa* (Uchqo'r. t.), *Yakkatepa* (Chust t.), *Uchtepa* (Nor. t., Chor. t.) kabi.

Beshtepa Uchqo'rg'on tuman Yangier QFY Dehqonboyso'fi fermer xo'jaligi hududida joylashgan. O'rta asrlarga mansub arxeologik yodgorlik. Yodgorlik ikki tepalikdan tashkil topgan qo'rg'on qoldiqlari bo'lib, balandligi 5-6 metrlar, diametri 40x65 metr dan iborat. O'rtasidan so'qmoq yo'l va ariq oqib o'tgan.

Qo'shtepa Uchqo'rg'on tuman, Bo'ston mahallasida joylashgan. Antik va o'rta asrlarga mansub arxeologik yodgorlik. Yodgorlik ikki tepalikdan tashkil topgan biri 3,-3,5 metrlar, ikkinchisi 2 metrlar keladigan do'nglikdan iborat. Hozirda kabriston sifatida foydalanishmoqda.

Qo'shtepa – 1 Chust tuman Sherbilak QFY hududida, qishloq mahalliy yo'li va aholi oralig'ida joylashgan. Yer maydoni 0,16 gektardan iborat joyi saqlanib qolgan. Antik va o'rta asrlarga mansub arxeologik yodgorlik.

Qo'shtepa-2 Chust tuman Sherbilak QFY hududida, qishloq aholisi oralig'ida joylashgan. Yer maydoni 0,11 gektardan iborat joyi saqlanib qolgan. Antik va o'rta asrlarga mansub arxeologik yodgorlik.

Yakkatepa Chust tuman Dam qishloq fuqarolar yig'ini Damobod mahalasi hududida, dala o'rtasida joylashgan. Antik va o'rta asrlarga mansub bo'lgan arxeologik materiallarga boy yodgorlik.

Uchtepa Chortoq tuman Arbag'ish qishlog'i hududida joylashgan. Antik va o'rta asrlar arxeologiya yodgorligi.

Uchtepa-2 (*O'rtatepa*, *Nuralibuvatepa*) Norin tumani Uchtepa qishloq fuqarolar yigini Uchtepa qishlog'i hududida joylashgan arxeologik yodgorlik,

bo'lib Eramizdan avvalgi III-II asrlar va Eramizning V-VII asrlariga mansub yodgorlikdir. Namangan – Haqqulobod avtomagistral yo'lining chap tomonida 50-60 metr ichkarida joylashgan. Uchtepa -1, 2, 3 umumiy holatda yagona majmuani tashkil etadi.

Uchtepa- 3 Norin tumani Uchtepa qishloq fuqarolar yigini Uchtepa qishlog'i hududida joylashgan arxeologik yodgorlik. Eramizdan avvalgi III-II va eramizning V-VI asrlariga mansub. Namangan–Haqqulobod avto-magistral yo'lining o'ng tomonida avtobekat orqasida joylashgan.

2. Ob'ektning hajm xususiyati bilan bog'liq agiotoponim va ekklezionimlar. Bunday nomlar ob'ektining keng ma'nodagi hajm xususiyatini: katta-kichikligini, uzun-qisqaligini, baland-pastligini ifodalaydi, ularning tarkibida ana shu tushunchalarni ifodalovchi so'zlar qo'llanadi: *Zo'rtepa* (Yangi. t.), *Balandtepa* kabi.

3. Ob'ektning tashqi ko'rinishi va shakliy tuzilishiga nisbat berilgan agiotoponim va ekklezionimlar. *Yumoloqtepa* (Chor. t. Alixon q.; Ming. t. Gurtepa q.), *Yassitepa* (Uychi t. G'ayrat q.), *Yaydoqtepa* (Nor. t. *Egriariq* (Nam. v. Norin t.), *Yortepa* (To'ra. t.), *Yumoloq-shayxmozor* (Kos. t.), *Beshiktepa* (Chust t. Shoyon q.), *Dutortepa* (Koson. t.), kabi.

4. Ob'ektni xarakterlovchi narsa-buyumlar va hodisalarga nisbat berilgan agiotoponim va ekklezionimlar: *Chiltonlar qabristoni* (Nam. sh.) *Qalampirtepa* (Nam. sh.), *Kultepa* (Nor. t.), *Munchoqtepa* (Chust t.) kabi.

Chust tumanining Yorqishloq, Olmos, Tepaqo'rg'on, Pop shahristonida va boshqa hududlarda bunday arxeologik yodgorliklar, ya'ni tepaliklar bor.

5. Ob'ekti yer qatlamining ustki tuzilishi, tuproqning tarkibiga bog'liq agiotoponim va ekklezionimlar.

O'zbek adabiy tilida oq va qora so'zlari ko'p ma'noli sifatida o'nlab ma'nolarni ifodalaydi. Shuningdek, geografik terminlar tarkibida ham qo'llanadi: *Oqsuv* va *Qorasuv*, *Oqtuproq*, *Qoratuproq*, *Oqyer*, *Oqdaryo*, *Qoradaryo*, *Qora dengiz*, *Oq dengiz* kabi.

Oq va qora soʻzlarining maʼno koʻlami va qoʻllanish doirasi keng boʻlib, turkiy tillar jumladan oʻzbek tili toponimiyasida bir qator toponimlar: gidronim, oykonim, aronim va nekronimlar tarkibida faol kuzatiladi: *Oqsuv, Qorasuv, Oqsoy, Oqbuloq, Qorabuloq, Oqjar, Oqtapa, Qoratepa, Oqmachit, Oq Nil* va boshqalar.¹

Qora va oq leksemalari nafaqat geografik terminlar, etnonim, biologik, zoologik, botanik, chorvachilik va boshqa sohalar terminalogiyasida ham faol qoʻllanadi: *qora choy, qora xitoy, qoraqalpoq, qoracha, qora oʻrdak, oq ayiq, qora baliq, oq kishmish, qora gilos, qora ildiz, oq ilon, oq shaftoli, oq qargʻay, qora ilon, qora tuproq, qora qoʻngʻiz, qora bel, qora bura, qoravoylar, qora janjal, qora kosov, qora kamar, qora kurmak, qora kuya, qora koʻl, qora mol, qora muran, qora sovuq, qora poʻchoq, qora son* kabi.²

Toʻplangan agyotoponim va nekronimlarga doir dalillar yoki materiallar oq va qora leksemalari boshqa toponim turlari kabi mozar, qabriston, ziyoratgoh va boshqa nomlar tarkibida ham faolligini koʻrsatadi. Jumladan, Namangan viloyati toponimiyasida oʻnlab oq va qora tarkibli agyotoponim va nekronimlar kuzatiladi: **Oqtapa** agyotoponimi va nekronimi viloyatdagi deyarli barcha tumanlarda kuzatiladi. Jumladan 7 ta Oqtapa mavjud:

Oqtapa – Chortoqning Peshqoʻrgʻon qishlogʻi hududidagi tuproqli tepalik.

Oqtapa – Pop tumani, Toʻda qishlogʻi hududidagi arxeologik yodgorlik. 1982-yilda davlat yodgorligi sifatida roʻyxatga olingan. Diametri 30-35 metr. Balandligi 11 metr. Maydoni 90 kvadrat metr. Hamma tomoni yopiq yon-bagʻirdan iborat. Bahorda faqat emfimer oʻtlar oʻsadi. Tapa mezozoy antropogent davri shoʻr va boshqa jaridan iborat, yaʼni shoʻrligidan oqarib ketgani bois Oqtapa deb ataldan.

Oqtapa – Pop tumani Rezak qishlogʻining shimoliy-sharqidagi arxeologik yodgorlik. Tuprogʻi boʻz rangda boʻlganligi uchun xalq uni “Oqtapa” deb nomlagan.

¹ Қаранг. Равшанов Р. Қора сув ва оқ сув// Фан ва турмуш. – 1974, 8-сон. – Б. 34-35.

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2003, 6-жилд. –Б. 614-619; 11-жилд, -Б. 66-91.

Rivoyatlarga qaraganda, Buyuk ipak yo'li o'tgan davrlarda tepalik o'rnida bozor bo'lgan. Bozorga 40 tuyada yuk kirib, 40 tuyada yuk chiqib turgan. Tuyalar orasida davangir oq tuya bo'lgan. Karvonda u bo'lmasa, odamlar bugun oq tuya bozorga kirmadi, demak bozor yaxshi bo'lmaydi deyishgan. Keyinchalik bu joy nomi "Oqteva" (ya'ni "Oq tuya") so'zi keyinroq Oqtepaga aylanib ketgan. Biznigcha bu xalq etimologiyasi. Tepalikning tuprogi bo'z, ya'ni oq rangda bo'lganligi bois shunday atalgan.

Yana bir Oqtepa Uychi tumani Qizilravot qishlog'ida joylashgan. Qadimda temuriylar davrida qarorgohlar aloqa qilish uchun Uchqo'rg'on tumanidagi Qayqi qishlog'iga tepalik yasalgan. Shuningdek, tepaliklar sel kelgan vaqtlarda jon saqlash uchun xizmat qilgan. Tepalikda ilgari bir masjid ham bo'lgan, u yerda Oppoq Eshon degan din peshvosi xizmat qilgan. Eshon vafotidan so'ng shu yerga dafn etilgan. Mozor va tepalik shu kishi nomi bilan atalgan.

Uchqo'rg'onning Atlas qishlog'i hududidagi tuproq tepalik ham Oqtepa deb ataladi.

Chortoq tumani Baliqko'l qishlog'idagi Oqtepaning nomlanish tarixi boburiylar davriga borib taqaladi. Boburning "Boburnoma" asarida ushbu qishloq qatorida mazkur tepalik ham tilga olinadi. Balandligi 12-15 metr, aylana uzunligi 100-120 metrni tashkil etadi.

Chortoq tumanidagi baland tuproqli tepalik ham Oqtepa deb yuritiladi. Maydoni 0,9 gektar.¹

Keltirilgan agiotoponimlar tarkibida oq leksemasi sho'r; suv chiqmaydigan bo'z yer; soliqlardan ozod qilingan yer ma'nolarida qo'llangan va shu ma'nolari bilan yuqoridagi agiotoponimlarga lug'aviy asos bo'lgan.

Bulardan tashqari, Qiziltepa, Qoratepa kabi nomlar ham kuzatiladi.

6. Fitotoponimlar. O'simliklar insoniyatning moddiy tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, kishilarning hayoti va xo'jalik faoliyatida muhim ro'l o'ynagan va o'ynamoqda.¹

¹ Абдулла Жаббор Наманган вилояти. – Наманган, 2011. – Б. 207-208.

Ayrim fitotoponimlarning lisoniy xususiyatlari N.Oxunov tomonidan tadqiq etilgan.² O'simlik va daraxt nomi bilan atalgan Xorazm viloyatiga xos nomlarni Z.Do'simov **fitonimik tip (fitotoponimlar)** termini ostida tahlil qilgan.³

Namangan viloyati toponimiyasida fitoekklezionim va nekronimlar ham uchraydi: *Pista* (Uychi t. O'nxayat q.), *Sumbulmozor* (Chust t. Toshqo'rg'onq.), *Tikanmozor* (Yangi. t.), *Yakkatol* (Chust t. Baliqchi q.), Qorayantoq masjidi (Ming. t. Dovduq q.), *Quyuqtut masjidi* (Uychi t. G'ayrat q.), Zirkmozor (Chor.t. Alixon q.) kabi.

7. Zoonekronimlar va agiotoponimlar. Tabiatdagi barcha mavjudotlar, unsurlar, voqea-hodisalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Xuddi shunday bog'liqlik hayvonot va o'simliklar, hayvonot va suv ob'ektlari doirasida ham mavjud. Tabiatdagi bu bog'liqlik va aloqadorlik tilda, nomlarda, jumladan, atoqli otlarda ham o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, *Ilontepa* (Yangi. t. Buloqboshi q.), *Ilonuya tepaligi* (Chust t. Chustnon q.), *Burgutlitepa* (Pop t. Chorkesar q.), *Baliqli mozor* (Chust t. Olmos q.), *Baliqliko'l* // *Baliqko'l* (Chor. t. Baliqko'l q.) kabi.

¹ Юргин К.И. Отражение фито и зоогеографии в эвенкийских географических названиях. Языки и топонимия Сибири. Вып. II. – Томск. 1970. – С. 50.

² Охунов Н. Фарғона области фитотопонимларини ўрганишга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982. – № 4. – Б. 32-35.

³ Дўсимов З. Ўша асар, 99-100-б.

2.2. Tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy agiotoponimlar, ekklezi-onimlar va ularning sotsiolingvistik xususiyatlari

Etnoecklezi-onim va agiotoponimlar. O'zbek tili gidronimik tizimida etnogidronimlar ham salmoqli o'rin tutadi. Urug', qabila, xalq, millat nomlari – etnonim (<grek. *ethnos* – etnos – urug', qabila, xalq – *onyma* – nom)lardir.¹ Etnogidronimlar tildagi eng qadimgi toponimik qatlamlardan sanaladi. Etnotoponimlar ob'ektlarning ma'lum etnik guruhga tegishliligini va mansubligini bildiradi.

Boshqa turkiy xalqlar kabi o'zbek xalqi ham ma'lum urug'-qabilalardan tarkib topgan. Urug'lar o'zaro yaqinligi, bir-biriga munosabatlari jihatidan birlashib, qabilani tashkil etgan. Qabila tarkibida bir necha urug'lar bo'lgan.

O'zbekiston, Farg'ona vodiysi, jumladan, Namangan viloyati hududi eng qadimgi aholi joylashgan va yashagan manzillardan biri hisoblanadi. Aholining o'troq hayot kechirishi va dastlabki sug'orma dehqonchilik eramizdan oldingi VI-IV asrlarga borib taqaladi. Bu vaqtlarda Farg'ona vodiysi hududi siyosiy-ma'muriy jihatdan shahar-davlatlar ittifoqidan iborat bo'lgan.

Farg'ona vodiysining bugungi ma'muriy chegaralarida juda qadim zamonlardan asosan yerli xalq o'zbeklar, tojiklar va qirg'izlar yonma-yon yashab kelganlar. Shuningdek hududda *saroy*, *to'da*, *nayman*, *yashiq*, *qo'g'ay*, *qo'g'ayo'lmas*, *elaton*, *g'alcha*, *o'lmas*, *qipchoq*, *yalong'och*, *arg'in*, *bag'ish*, *arbag'ish*, *cho'ngbag'ish*, *olchin*, *qiziloy*, *baymoq*, *puchig'oy*, *qozoq*, *qirg'iz*, *uyg'ur*, *qoraqalpoq*, *tatar* kabi urug' va millat vakillari istiqomat qiladilar. Hududning etnik tarkibi toponimlarda ham o'z ifodasini topgan.

Namangan viloyati nekronimlari doirasida rus, osetin, tatar, koreys millatiga nisbat berilgan quyidagi nekronimlar to'plandi:

O'rismozor - Uchqo'rg'on tuman Qo'g'ay QFY Islomobod mahallasida joylashgan. Antik va o'rta asrlarga mansub yodgorlik bo'lib, himoya hududi

¹ Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 37.

mavjud. Bu yodgorlikning nomlanishi o'tgan asrning boshlarida yevropalik xristian diniga e'tiqod qiluvchi fuqarolarning ko'chib kelishi va yangi tashkil etilgan sobiq davlat xo'jaligida yashashi va keyinchalik ularning qabristoni mazkur qadimiy tepalikka joylashganligi uchun mahalliy aholi tomonidan **O'rismozor** deb atalgan. Bunda nomga rus etnonimining jonli so'zlashuvga xos o'rus so'zi lug'aviy asos vazifasini bajargan.

Osetinmozor - Uchqo'rg'on tuman Qo'g'ay qishloq fuqarolar yig'ini hududida joylashgan. Antik va o'rta asrlarga mansub arxeologik yodgorlik. Umumiy diametri 40 metrlar atrofida balandligi 5-6 metrlar bo'lgan tepalik aholi manzilining ichida joylashgan. Hozirgi kunda qabriston o'rnida foydalanishadi, ya'ni osetin millatiga mansub fuqarolar dafn etilganligi sababli yuqoridagi nom bilan atalgan.

Tatarmozortepa – Uchqo'rg'on tuman Chorvador jamoa xo'jaligi Uchko'prik qishlog'ida joylashgan. Yodgorlik asosan uch qismdan iborat bo'lib, balandligi 1,5-2 metr dan iborat qo'rg'on tipidagi karvonsaroy qoldiqlaridir. 40x30 metr o'lchamdagi saroy qoldiqlari XVIII-XIX asrlarga tegishli.

Koreysmozortepa – Norin tumani, Haqqulobod shahridagi paxta zavod yonida joylashgan ilk o'rta asrlarga oid arxeologik yodgorlik. Yodgorlikda 1980 yilda arxeolog M. Isomiddinov, 2005 yilda Sh. Nasriddinov va B. Ro'zinovlar tomonidan o'rganilib davrlashtirilgan.

Viloyat etnonekronimlari etnonim + nekronimik indikator modelida, ya'ni millat nomlariga mozor, tepa toponimik indikatorlarining qo'shiluvi asosida hosil qilingan.

Antroponekronimlar. Viloyat antroponekronimlar kishi nomlari asosida yuzaga kelgan mozor, qabriston va ziyoratgoh nomlaridir.

Hudud antroponekronimlariga o'tmishda yashagan obro'-e'tiborli, taqvodor, imon-e'tiqodli *valiy, sayid, eshon, xo'ja* maqomidagi kishi nomlari lug'aviy asos qilib olingan. Bunday ob'ektlar shu yerga ilk dafn etilganligi yoki qabrlari, maqbaralari bo'lganligi bois shunday atalgan.

Sherqurbonvaliy mozorlari – umumiy yer maydoni 3.00 gektardan iborat bo'lib, Yangiqo'rg'on tuman G'ayrat QFY hududida joylashgan. IX asrlarga oid.

Sulton Sayyid Jalolliddin maqbarasi - Chortoq tuman, Koroskon qishlog'ida, mahalliy qabriston hududida joylashgan. Yodgorlik mahalliy axoli vakillarining aytishlariga qaraganda, Termiziylar avlodlaridan bo'lgan Sulton Sayyid Jalolliddin va onalarining nomi bilan bog'langan.

Mahalliy aholi tomonidan har ikkalalariga alohida ushbu maqbaralar qurilgan.

Qurbon buva mozori ziyoratgohi - Norin tuman, Cho'ja qishlog'ida joylashgan, qadimiy qabriston. Eshonbuvaning qabri bo'lganligi uchun Qurbonbuva nomi bilan ataladi. Majmuada maqbara, qabriston, ziyoratgoh, antik davrga oid arxeologiya yodgorligi mavjud.

Antroponekronimlarning deyarli barchasi tuzilishiga ko'ra qo'shma tarkibli bo'lib, ularning tarkibida o'zbek xalqiga xos hurmat-e'tibor, e'zoz motivlarini ifodalovchi *valiy*, *sayid*, *eshon*, *xo'ja* ijtimoiy-siyosiy terminlar bilan bir qatorda *bobo*, *ota*, *ona*, *buvi* kabi lug'aviy birliklar qo'llanadi. Masalan, *Bejirim ota* (Uychi t. Uychi sh.), *Ahmadbob* (Chust t. G'ova q.), *Bulgadarazbobo* (Pop t. Uyg'ur q.), *Ko'klar buva mozori* (Chust t. G'ova q.), *Ilinji ota mozori* (Chust t.), *Xo'ja Safid mozori* (Chust t. Varzigon q.), *Eshon so'fi buva mozori* (Chust t. Olmos q.), *Dahiyakota* (Uychi t. Jiydakapa q.), *Devonabuva gumbazi* (Uychi t. Yorkatay q.), *Imom Husayn* (Kos. t.), *Imomota qabristoni* (Pop t. Parda Tursun q.) kabi.

Hudud nekronimiyasi uchun yana bir xarakterli jihat shundaki, ob'ektlarni salmoqli qismi antroponimlar, ya'ni kishi nomlari bilan atalgan, bunda mozar yoki qabristonni bunyod etgan, unga birinchi dafn etilgan ulug', mo''tabar, aziz, diniy martabali *said*, *eshon*, *xo'ja* tabaqasidagi kishi nomlari asosga olingan yoki aniq kishi ismi qo'llanmasa-da, diniy tabaqa ifodalovchi birliklarga e'zozlash, hurmat semalarini ifodalovchi *buva*, *bobo*, *buvi*, *ota* kabi so'zlarning qo'shish bilan atoqli nomlar hosil qilingan: *Toptig' ota* (Kosonsoy t.), *Saidbuva*, *Buvota buva*, *G'oyibbuva* (Norin t.), *Ernazareshon buva*, *Hojimatbuva* (To'raqo'rg'on t.),

Bejirimota, Devonabuva (Uychi t.), *Jiyanbuva, Xo'ja Sayid, Yalong'ochota, Qosimqori* (Uchqo'rg'on t.), *Ayritosh buvam mozori, Bobo Buzruk, Ilinji ota, Murodbuva, Ulug'ota, Xo'ja Safid, Xalfabuva, Xasti Oxunbobo, Eshon So'fibuva* (Chust t.), *Eshonbuva, Xo'jabuva* (Yangiqo'rg'on t.) kabi.

Topoeckklezionim va toponekronimlar. Bunday nomlar toponimlarga nisbat berish asosida yuzaga kelgan.

Topoeckklezionim va toponekronimlarni qanday joy nomi asosida yuzaga kelganligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi

a) shaharcha, shahar nomi – polisonimlarga nisbat berilgan eckklezionim va agionimlar: *Chortoqtepa* (CHor. t.), *Haqqulobod masjidi* (Nor. t.), *Jomashuy* (Ming. t.) kabi;

b) qishloq nomlari – komonimlarga nisbat berilgan eckklezionim va agionimlar: *Tepaqo'rg'on masjidi* (Nam. t. Tepaqo'rg'on q.), *To'da masjidi* (Pop t. To'da q.), *Chodak qabristoni, Chodak masjidi* (Pop t.), *G'urumsaroy masjidi* (Pop t.) kabi.

v) mahalla nomlari – komonimlarga nisbat berilgan eckklezionim va agionimlar: *Boymahalla masjidi* (To'ra. t.), *Uzunko'cha masjidi* (To'ra. t. Xolmatov q.), *Mahalla mozor* (Chust t. G'ova q.) kabi.

Namangan viloyati nekronimiyasida qabriston va mozorlarni ular joylashgan hududdagi qishloq, shaharcha, mahalla, ko'cha nomlari bilan atash keng tarqalgan. To'plangan nekronimlarning 150 dan ziyodi shunday nomlardir. Bu viloyat tumanlaridagi mozor va qabristonlar nomlanishidagi bir xarakterli jihat hisoblanadi: *Baland Gurtepa, Jomasho'y, Guliston, Mulkobod, Qayrag'ochovul* (Ming. t.), *Chek, Qo'g'ay, Chorvador, Nayman, Shahrixonchek, Parokanda* (Uchqo'r. t.), *Gaznon, Olmazor* (Yangi. t.), *Boyag'on, Keskanyor, Olmurut, Ravot* (Uychi t.), *Bo'ston, O'lmas, Toshloq, Marg'izor* (Nor. t.) kabi.

Til mohiyatan ijtimoiy hodisa. Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar tilda o'z ifodasini topadi va ifodalanadi.

Globalashuv, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar natijasida tilning sotsial vazifalari ortib boradi.

Tilning mohiyati, vazifasi ko'pincha benihoya jo'n talqin etiladi. Go'yoki til – eng muhim aloqa vositasi bo'lgan ijtimoiy hodisa. Tilning aloqa vositasi ekanligi uning juda ko'plab vazifalaridan faqat bittaginasidir. Aslida til, eng avvalo, dunyoni ko'rish, eshitish, bilish, idrok etish vositasidir. Ayni paytda tilning ruhiy, estetik hodisa ham ekanligini unutmaslik lozim.¹

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, “Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”.²

Tilning yuqorida ta'kidlangan ijtimoiy mohiyati va vazifasi toponimlarda, jumladan agiotoponim va ekklezionimlarda ham yorqin kuzatiladi. Agiotoponim va ekklezionimlar doirasida tilning ijtimoiy va lingvistik ya'ni sotsiolingvistik quyidagi mohiyati namoyon bo'ladi:

1. Qadimiy va uzoq davrlar davomida shakllangan nomlash an'analariga muvofiq bir mozor, qabriston, maqbara va masjidning ikkinchisidan farqlashga hamda nomlashga

2. Muqaddas joy nomlariga bo'lgan milliy, diniy va an'anaviy qadryat hamda munosabatlarni ifodalaydi.

3. Agiotoponim va ekklezionimlar tarkibida qo'llangan buvi, buva, bobo, ota, momo so'zlari vositasida ota-bobolarga o'zining urug', qarindosh va avodlariga bo'lgan kishining hurmat-ehtiromini ifodalashga xizmat qiladi.

4. Avlodlarini-avlodlarga, davrlarni-davrlarga bog'lash ota-bobolarni e'zozlash, qadrlash kabi an'analar davomiyligini ta'minlaydi.

¹ Махмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б. 10.

² Ислом Каримов Юксак маънавият енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 83.

II bob yuzasidan xulosalar

1. Agiotoponim va ekklezionimlarni yuzaga kelishida nisbiylik, pozitivlik, negativlik tamoyil (prinsip) lariga asoslaniladi.
2. Agiotoponim va ekklezionimlar mahalliy xalqning milliy, diniy, etnik an'analari mahsulidir.
3. Agiotoponim va ekklezionimlar nomlanish motive va asosiga ko'ra tabiiy-geografik hamda ijtimoiy-iqtisodiy guruhlariga bo'linadi.
4. Muqaddas madaniy yodgorliklarni xususan mozar, qabriston, maqbara, ziyoratgoh, masjid va madrasalarni nomlabgina qolmasdan nom ifodalayotgan hududni ekologik himoyalash ya'ni e'zozlash, qadrlash barobarida asrab-avaylash ruhini shakllantiradi.

III bob. Namangan viloyati nekronimlarining etimologik va struktural xususiyatlari

3.1. Ayrim agiotoponim va ekklezionimlarning etimologik tahlili

Langar asosli toponim va agiotoponimlar. Lug'atlarda *langar* so'zi fors tilidan o'zlashgan bo'lib, o'zbek tilida omonim sifatida quyidagi ma'nolarda qo'llanishi qayd etiladi:

1. Kemaning va boshqa suzib yuruvchi vositalarni suv yuzida ma'lum bir joyda to'xtatib, ushlab turish uchun zanjirga biriktirib, suv ostiga tashlanadigan og'ir temir changak.

2. Dorda muvozanatni saqlash uchun dorboz qo'lda tutadigan yo'g'onroq uzun tayyoq; langarcho'p.¹

To'ra Nafasov *langar* so'zining bu ma'nolarida omonimlik yo'qligini, ko'pma'nolilik mavjudligini ko'rsatadi.²

Respublikamiz, Tojikiston toponimiyasida *langar* lug'aviy asosida shakllangan toponimlar ko'p. Bizningcha ham shunday. So'zning yuqorida keltirilgan ma'nolari o'rtasida bog'liqlik bor, ular aynan bir so'zning turli ma'nolaridir. Fikrimizni Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan izohli lug'atda aynan shu ma'nolarni ko'p ma'nolilik sifatida izohlanishi ham tasdiqlaydi.³

Langar so'zi o'zbek tiliga so'g'd, xorazmiy (fors, tojik) tillaridan o'zlashgan. Tojik tilida bu so'zning ma'nolari ko'p va xilma-xil bo'lgan. SHu ma'nolarning ayrimlarigina o'zbek tiliga o'tgan. Alisher Navoiy asarlarida *langar* so'zining omonim sifatida ikkita ma'nosi qayd etilgan:

1) langarcho'p; kemani to'xtatib turish uchun suvga tashlanadigan og'ir temir ilmoq (yakorъ);

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-ж. – Б. 486.

² Нафасов Т. Қишлоғингиз нега шундай аталган? – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 60.

³ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – II ж. – Б. 166.

2) mehmonxona, g'aribxona; ziyofatxona: ... *jo'yi "Sultoniyy" yoqasida Pahlovon bir langare bunyod qilibdur*. Holoti Pahlavon Muhammad, XIV-93.¹

T. Nafasovning qayd etishicha, langar so'zining o'tmishda *qabriston, biror ulug' kishi qabri yonida qurilgan ibodatxona* ma'nolari ham bo'lgan.²

Manbalar va lug'atlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, *langar* so'zi tojik va o'zbek tillarida langar so'zi quyidagi o'nlab ma'nolarda qo'llangan: *to'xtash joyi, g'aribxona, karvonsaroy, ibodatxona, g'arib-g'urabolarga ovqat beriladigan maskan, qabr, go'rxona, xonaqoq, bekat, yomxona, kemani to'xtatish uchun xizmat qiladigan ilmoq (changak, yakor), dorvozcho'p* kabi. So'zning ma'no tuzilishida kengayish va torayish kabi holatlar kuzatiladi.

Namangan toponimiyasida bu tipdagi toponimlar ko'p: *Langar mahallasi, Langar masjidi* (Nam. sh.), *Langarbuva masjid-maqbarasi* (Pop t.), *Langar qabristoni* (Pop t. Chodak q.), *Langarozbuva qabristoni* (Pop t. Sang q.) kabi.

Langar masjidi (Nam. sh.) agitoponimiga langar so'zining *muqaddas ibodatxona* ma'nosi lug'aviy asos bo'lgan. Shuningdek, mahalliy xalq orasida masjidga Langariy degan kishi imomlik qilgan ekan degan fikrlar ham yuradi, biroq bu ancha munozarali.

Langar oykonimiga esa ana shu masjid nomi asos bo'lgan. Mahalla hududdagi orinter vazifasini bajaruvchi masjidga nisbat berish orqali *Langar mahalla* deb nomlangan. Fikrimizni T. Nu'monov, B. Turdaliev, A. Haydarovlarning quyidagi izohlari ham tasdiqlaydi: "*Langar mahalla* deb atalishiga sabab, bu yerda ilgari Langar machiti bo'lgan ekan".³

Demak, bu nom *Langar masjidi atrofidagi mahalla* toponimik ma'nosiga ega.

Langarbuva majmuasi - Pop tumanining Sang qishlog'ida joylashgan. U manbalarda majmua, *masjid-maqbarasi* deb yuritilgan va tarixiy, arxeologik,

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Фан, 1983. — II ж. — Б. 166.

² Нафасов Т. Ўша луғат, 62-бет.

³ Нуъмонов Т., Турдалиев Б., Ҳайдаров А. Наманган вилояти топонимларидан материалларю — Наманган, 1995. — Б. 33.

me'moriy nuqtai nazardan izohlangan.¹ *Bizningcha*, u bir necha ob'ektlarni o'z ichiga olganligiga ko'ra majmua deb atalishi to'g'riroq.

Langarbuva majmuasi qabriston, masjid, ikkita maqbarani o'z ichiga olgan. Demak, nom tarkiban *langar* va *buva* morfemalaridan tarkib topgan. Agitoponimga *langar* so'zining *ulug' kishi qabri yonida qurilgan ibodatxona* ma'nosi lug'aviy asos bo'lgan.

Langarbuva IX–XVIII asrlarga oid arxeologik va me'moriy yodgorlik. Majmua hududidagi qadimiy maqbaralarning biri, ya'ni sharqiy qismidagisi IX asrga taalluqli bo'lib, u yerga Xoja Abdulloh Ansoriy, g'arb tomondagi XVIII asrga tegishli maqbaraga esa Xoja Ibodulloh Almadoriy (yoki Alamdoriy) dafn etilgan. Ana shu *ulug' kishilar* dafn etilgan maqbaralar yonida bunyod etilgan masjid va shular atrofdagi qabriston *Langar* deb atalgan. Keyinchalik bu joyni e'zozlanishi va qadrlanishi asosida *Langar* tarkibiga *buva* so'zi qo'shilgan. Demak, *Langarbuva* agitoponimi *ulug' kishi qabri yonida qurilgan ibodatxona* degan toponimik ma'noga ega.

***Bibi* tarkibli agionim, agiotoponim va etnografizmlar.**

Biz quyida *bibi* tarkibli agionimlar, ular asosida yuzaga kelgan etnografizmlar va agiotoponimlar xususida fikr yuritmoqchimiz. Namangan viloyati toponimiyasida *bibi* tarkibli *Bibiona*, *Bibi Naima*, *Bibi Mushkulkushod* agiotoponimlari kuzatiladi. Mazkur nomlarning har biri o'ziga xos tarixga, nominativ-motivatsion xususiyatlarga, lug'aviy asosga ega.

Bibi Naima ziyoratgohi Chortoq tumanining Bog'iston qishlog'i-dagi Prat mahallasida joylashgan. *Bibi Naima*ning ikkinchi nomlari *Bibi Rohat* ekan. Manbalarda agiotoponim *Bibi Naima*, *Bibinaima*, *Bibirohat* shakllarida uchraydi. Bizningcha, mazkur agiotoponim imloviy an'analarga muvofiq *Bibi Naima* // *Bibi Rohat* tarzida yozilishi lozim.

Ziyoratgoh hududida buloq ham bor. U *Sutlibuloq* // *Sutbuloq* deb ataladi.

¹ Қаранг. Рўзинов Б. ва бошқалар. Наманган маданий мероси. - Наманган, 2013. – Б. 101. Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. – Наманган, 2011. – Б. 196.

Mahalliy xalq orasida tarqalgan rivoyatlarga qaraganda Bibi Naima avliyo Sulton Vaysning onalari bo'lgan ekanlar.

Bibiona – Chust shahrining shimolida joylashgan ziyoratgoh. Bibiona manzilgohi Chust madaniyati nomi bilan YUNESKO himoyasiga olingan.

Mazkur manzilgoh 1950 yilda arxeolog M. E. Voronets tomonidan kashf etilgan. Ziyoratgoh 1951 – 1961 yillarda arxeolog V. I. Sprishevskiy tomonidan, 1974 va 1982 yillarda tarix fanlari doktori, Yu. A. Zadneprovskiy, 1982 – 1984 yillarda tarix fanlari doktori, professor Ahmadali Asqarov rahbarligida bir necha olimlar tomonidan tarixiy hamda arxeologik jihatdan o'rganilgan.¹ Bibiona manzilgohining xronologik sanasini M. E. Voronets miloddan oldingi III – II ming yilliklar, A. N. Bernshtam eramizdan oldingi II ming yilliklar, akademik Ya. G'. G'ulomov miloddan avvalgi II ming yilliklarning oxiri – I ming yilliklarning dastlabki asrlari deb ko'rsatganlar. Keyingi tadqiqotlar natijasida Bibiona yodgorligining yoshi miloddan oldingi II ming yillikning oxirlari – miloddan oldingi X-VIII asrlarga to'g'ri kelishi e'tirof etilgan.² Mana shu tarixiy xulosalarga asoslanadigan bo'lsak, ziyoratgoh 2800 – 3000 yillik tarixga ega. Bu dalillar uning qadimiyligini ko'rsatadi.

Arxeolog V. I. Sprishevskiy Bibionadagi bronza asriga – bundan 4 ming yillar avvalgi davrlarga oid turarjoy va qabrlarni qazib, anchagina uy-ro'zg'or ashyolari, sopol idishlar, ibtidoiy kishilarning suyaklarini topib tekshirgan. U Bibiona yodgorligini ibtidoiy qishloq deb hisoblagan. O'sha vaqtda Yahyo G'ulomov ham shu fikrda bo'lgan. Ammo keyingi tadqiqotlar natijasida Bibiona // Buvanamozor qishloq emas, shahar bo'lganligini, dastlabki Chust shahri o'rni ekanligini qayd etganlar.

Buvanamozordagi qadimiy buloq suvi ham ilohiylashtirilgan. Qadimgi dehqonlar ana shu buloq atroflarini makon tutishgan.

¹ Бу ҳақида қаранг. Қосимов Ў. Қадимги Фарғона сирлари. – Наманган, 1992. – Б. 29-31.

² Қосимов Ў. Ўша асар, 31-бет.

Keksalarning rivoyalariga ko'ra, Bibiona mo''tabar ayol bo'lib Qosimshayxning singillari bo'lgan emish. Ikkovlari ham XVI asrda yashab o'tgan chustlik mashhur alloma Mavlono Lutfullohga zamondosh bo'lganlar.

Bibiona haqidagi xalq orasidagi rivoyatlarga ko'ra, Bibiona Chustning ilk tsivilizatsiya markazi bo'lib, bundan 40 asr avval yuzaga kelgan. Qadimda qabilalarni ayol kishi boshqargan. Shuning uchun ham qabila boshlig'ini „bibiona“ deb atashgan. O'sha davrda aholi to'kinchilik, shodu xurramlikda yashagan ekan. Ana shunday kunlarning birida Bibionaning yurtiga yovuz dushmanlar bostirib keladi. Aholini qilichdan o'tkaza boshlaydi. Shunda Bibiona yaratganga nola qilib ko'zyosh to'kadi. Uning nolalari Allohga yetib borib, Bibiona yer ostiga g'oyib bo'ladi va u yerdan buloq chiqadi. Mo''jizani qarangki, o'sha paytda u yerlar cho'l va dashtliklardan iborat bo'lgan ekan.

Tarixchi olim Y. Qosimov fikricha, manzilgohda hayot miloddan oldingi X-VIII asrlarda to'xtagan, turarjoylar esa vaqtlar o'tishi bilan shamol, qor va yomg'irlar ta'sirida yemirilib tepalikka aylanib qolgan. Tekshirishlardan ma'lum bo'lishicha, mahalliy aholi kerakli narsalarni o'zlari bilan birga olib ketib, boshqa qulay joyga o'rinishganlar. Vaqtlar o'tishi bilan bu tepalik *katta ona* yoki *boshliq ona* – “Bibi ona” deb yuritilib, keyinchalik odamlar unga sig'ina boshlagan.¹

Manzilgohni qazish vaqtida 4 ta qabr topilgan. Ulardan ikkitasi buzilgan, ikkitasi butun holda bo'lgan. CHunonchi, chap yonboshi bilan boshi janubi-g'arb tomonga qaratib qo'yilgan balog'atga yetgan ayol jasad ham topilgan. Demak, mahalliy aholi ana shu ayolni katta ona sifatida hurmatlab, mo''tabar bilib, unga nisbat berib, bu joyga **Bibiona** // **Bibionamozor** nomini bergan. Bibiona agiotoponimining mahalliy shevada va manbalarda bir necha fonetik variantlari kuzatiladi: *Buvano* // *Buvanomozor*², *Bibiona*³, *Buona* // *Buvana*⁴ kabi. Agitoponimning *Buvano*, *Bibiona*, *Buona* // *Buvana* variantlarining hammasi ikki: *bibi*, *buvi* va *ona* ma'noli qismlaridan tarkib topgan.

¹ Қосимов Ў. Ўша асар, 31-32-бетлар.

² Нажмиддин Файзиддин ўғли, Муҳаммад Ҳаким, Жўрахон Муҳаммад Ҳофиз ўғли. Чуст тарихи. – Чуст, 1995. – Б. 13-15.

³ Жамоа. Бибионага муносабатимиз қандай // Чуст ҳақиқати, 2004, 10 сентябрь, № 37. – Б. 3.

⁴ Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. – Наманган, 2011. – Б.189.

Bibi so'zining leksik-semantik taraqqiyotiga nazar soladigan bo'lsak, u til taraqqiyotining barcha davrlarida adabiy tilda va shevalarda qo'llangan.

O'zbek tilida *bibi* so'zi quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. Shevada. *Onaning yoki otaning onasi; buvi* (nabiraga nisbatan).
2. *Hurmat yuzasidan, odatda keksa ayollar ismiga qo'shib ishlatiladi.* Masalan, *Mehribibi, Xayribibi* kabi.
3. Xotin-qizlar ismining old yoki orqa qismida kelib, qo'shma ismlarning hosil qiladi: *Bibigul, Bibiniso, Bibisanam; Davlatbibi* kabi.¹

Qadimgi turkiy tilda *ota-onaning onasi* ma'nosidagi **buvi** so'zi **bibi** tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi *i* unlisi *u* unlisiga almashgan: **bibi** > **buvi**.² Hozirda *buvi* shakli mustaqil qo'llangani holda *bibi* shakli yuqorida keltirilganidek, atoqli otlar tarkibida qo'llanmoqda.

Eski o'zbek adabiy tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida *bibi* so'zi *mo''tabar ayol, xonim, uy sohibasi, beka* ma'nolarida qo'llangan: *Xojakim, bibi borida dodakka aylang'ay, bibining iffat etagi qulg'a bulg'ang'ay* (Mahbubul-qulub, 140).³

Bibi Maryam – Qur'onda tilga olingan taqvoli, siddiqa ayol, Iso payg'ambarning onasi. Musulmonlar uchun u eng mo'mina ona, jannatdagi ayollarning rahnomosi. Turkistonda Maryamga hurmat yuzasidan “Bibi” atamasi qo'shib aytiladi.⁴

Tarixda Amir Temurning katta xotini Saroymulixonim haramdagi barcha malikalardan ulug' hisoblanib, “Katta xonim” yoki “Bibixonim” degan unvonga noil bo'lgan.⁵ Hozir ham ayrim shevalarda, xususan, Qashqadaryoning Kitob shevasida **bibi** so'zi *izzat-hurmat qilinadigan yoshi ulug' ayol* ma'nosida qo'llanadi.⁶

Tahlillardan ko'rinadiki, Bibiona agitoponimi *mo''tabar, hurmatli ona* degan toponimik ma'noga ega.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 251-252.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Унверситет, 2000. – Б. 63.

³ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – 1 т. – Б. 288.

⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2001. – 2-ж. – Б. 13.

⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2001. – 2-ж. – Б. 14.

⁶ Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқи сўзлари. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б. 40.

Agitoponim variantlaridagi *bibi* soʻzi tarkibidagi *i* unlisining *u* unlisiga oʻtishi (*bibi* > *buvi*), keyinchalik *bibi*, *buvi*, *ona* soʻzlarining qoʻshiluv, apellyativning atqali otga oʻtishi, soʻz tarkibida *buvi* soʻzidagi *i* unlisining tushib qolishi, *ona* soʻzining birinchi boʻgʻinidagi *o* unlisining *a* unlisiga oʻtishi kabi bir necha fonetik hodisalar va konversiya yuz bergan va nomning yuqorida keltirilgan sheva variantlari hosil boʻlgan: *buvi* + *ona* > *buviona* > *buvona* // *buvana* > *Buvona*// *Buvana*. Nomning keltirilgan variantlari mahalliy shevada, ilmiy va ilmiy ommabop manbalarda faol qoʻllanmoqda.

Bibiona ziyoratgohi majmuasi mozar, bir necha buloqlardan iborat. Yana xalq orasida shu yerda qirq qiz gʻoyib boʻlganligi haqidagi rivoyatlar ham mavjud. Qirq qiz gʻoyib boʻlgan joyda buloq paydo boʻlgan ekan. Bibiona ziyoratgohida beshta buloq mavjud. Har bir buloq oʻziga xos xususiyatga va nomga ega. Buloqlarning birinchisi „**Ona koʻzyoshi**“ deb ataladi. Bibiona gʻoyib boʻlgan joyda mazkur buloq paydo boʻlgan deb ham rivoyat qilinadi. Mahalliy aholining aytishicha, farzandsizlar shu buloq yonida turib Allohga nola qilisharkan. Moʻʼjizani qarangki, duo oʻqilayotganda buloq suvi qaynab, buloq yuzida chaqaloqqa oʻxshash ramziy belgilar hosil boʻlarkan.

„**Qizbuloq**“ deb atalgan ikkinchi buloq ziyoratgohdagi eng katta buloqdir. Baxt soʻrab qizlar buloqqa tanga tashlashadi. Buloq ichida baliqlar suzib yuradi. Buloq yonida aytilgan har qanday yaxshi niyat amalga oshar emish. Buloqning ikkita katta koʻzi boʻlib, orzu qilingan tilaklar unda aks etarmish.

Ziyoratgohdagi uchinchi buloq shifobaxsh xususiyatlarga ega. Quloq, koʻz, burun ogʻrigʻi bilan xastalanganlar buloq suvidan shifo toparkan. SHu bois unga „**Koʻzbuloq**“ deb nom berilgan. Qolgan ikkita buloq esa yaroqsiz ahvolda, ularga maxsus nom berilmagan.

Bibiona ziyoratgohidagi *Ona koʻzyoshi*, *Qizbuloq*, *Koʻzbuloq* kabi buloq nomlari metaforik gidronimlar sirasiga mansub.

Niyatlar, tilaklar maskani boʻlgan Bibiona ziyoratgohi yilning barcha faslida gavjum.

Namangan viloyatidagilardan tashqari O'zbekiston toponimiyasida Farg'ona viloyatidagi *Bibi Buvayda maqbarasi*, Samarqanddagi *Bibixonim jome masjidi*, *Bibixonim madrasasi* kabi bir qancha *bibi* tarkibli agiotoponimlar ham mavjud.

Farg'ona viloyatining bir tumani Buvayda deb ataladi. Buvayda xoronimi aslida Bibi Ubayda shaklida bo'lib, til taraqqiyoti davomida nom morfemik tarkibida bir qator fonetik o'zgarishlar yuz bergan va hozirgi shaklga kelib qolgan. Mazkur tumandagi agiotoponim – *Bibi Buvayda maqbarasi* (XV-XVI asrlar) ziyoratxona va ikki go'rxonadan iborat bo'lib, din arbobi, afsonaviy sarkarda Shoh Jalilning onasi va xotiniga atab qurilgan deb taxmin qilinadi.¹

Bibi so'zi bir qancha o'zbek shevalarida turli ma'nolarda faol qo'llanadi. Jumladan, Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida *bi:vi* (To'rtko'l tumani), *bibi* (Beruniy tumani) shakllarida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi: 1) *ayol*, *xotin*; 2) *kelin oyi*; 3) *o'qimishli ayol*. Shuningdek, mazkur shevalarda *biyi* so'zi ham bo'lib, u quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1) *buvi*; 2) *opog'oyi*; 3) *yanga*, *kelinoyi*.² Qarshi shevasida esa *biyi* so'zi *kuyovning* va *kelinning onasi*, *qaynana* tushunchasini anglatadi.³

Bibi Qashqadaryoning Kitob shevasida *izzat-hurmat qilinadigan yoshi ulug' ayol* ma'nosida qo'llanadi.

O'zbek tilida *bibi* tarkibli bir necha etnografizmlar ham mavjud. Qarshi shevasida *yaxshi niyatlarning amalga oshishini istab o'tkaziladigan ayollar diniy marosimi* ma'nosida **bibimushkul**, *yoshi qari ayollar o'tkazadigan* diniy marosimni anglatuvchi **bibishanba** etnografizmlari ham kuzatiladi.⁴

Namangan tumani Qumqo'rg'on mahalla fuqorolar yig'inidagi Bektemir mahallasida **Bibi Mushkulkushod ziyoratgohi** ham bor. Uni mahalliy aholi **Bibi Chorshanbamozi** deb ham ataydi. Ziyoratgoh maqbara, qabriston, hovuz va qo'shimcha binolarga ega.

Rivoyatlarga qaraganda, Mushkulkushod ismli onaxon Hazrat Bahovaddin Naqshbandning tug'ishgan xolalari bo'lgan ekanlar. Haddan tashqari pokdomon,

¹ Қаранг. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. — Тошкент, 2001. — 2-ж. — Б. 13.

² Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. — Тошкент: Фан, 1977. — Б. 83.

³ Нафасов Т. Ўша асар, 41-бет.

⁴ Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. — Тошкент: Мухаррир, 2011. — Б.40.

taqvodor bu ayol ko'pchilik hurmatiga sazovor bo'lgan, ammo bu kishining o'zlari befarzand ekanlar. Keyinchalik u kishi tarkidunyo qilib faqat toat-ibodat bilan kun kechirishni ixtiyor etgan ekanlar. Mushkulkushod onaga ixloslari baland bo'lgan kishilar boshlariga musibat tushgan, muammolarga duch kelgan kezlarda u kishini ziyorat qilib, duolarini olar ekanlar.¹ Mushkulkushod mozoriga juda ko'p ayollar ziyoratga keladi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, Bibi Mushkulkushod – o'zbeklar va tojiklarning afsonalarida hayotdagi turli mushkullarni oson qiluvchi kampir siymosi. Rivoyatlarga ko'ra, Bibi Mushkulkushod Bahouddin Naqshbandning xolasi ekan.² Lug'atlarda izohlanishicha, *mushkulkushod* etnografizmi arabcha *mushkul* va forscha *kushod* so'zlarining qo'shiluvidan yasalgan bo'lib, *kishining mushkulini oson qilish, ishini yurgizish maqsadida qilinadigan marosim hamda duoni* anglatadi.³ Yana bir boshqa manbada izohlanishicha, **mushkul** – qiyin, *dushvor* ma'nosini, **kushod** – ochuvchi, *ya'ni qiyinchiliklarni yenguvchi, mushkullik va bandlarni yechuvchi* ma'nosini anglatadi. Etnografik adabiyotlarda qayd etilishicha, bu o'rinda *yechish, ochish* iboralari diniy-magik ma'noga ega bo'lib, ko'plab qadimiy xalqlarga xos.⁴ Bibi Seshanba marosimi ko'plab turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan bo'lib, Turkiston mintaqasida *Bibi Seshanba*, Turkiyada *Peysheben* – *qorı*, Eronda *Bibi hur* va *Bibi Nur* deb nomlanadi.⁵

Bibi Seshanba esa o'zbeklar va tojiklarning afsonalarida ayollar sig'inadigan avliyo (ona), oilaviy baxt, shuningdek, ip yigirish va tikuvchilik kabi hunarlarning homiysi, piri. Bibi Seshanba agionimi manbalarda *Seshanba ona* deb ham yuritiladi.⁶ Odatda ayollar seshanba kunlari Bibi Seshanba, chorshanba kunlari Bibi Mushkulkushodga bag'ishlab marosimlar o'tkazishgan.

O'zbeklarda “chorshanba – murodbaxsh kun”, “chorshanba – ziyorat kuni” degan tushunchalar ham mavjud, ya'ni “chorshanba kuni boshlangan ishning oxiri

¹ Бу ҳақида қаранг. Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган, 2013. – Б. 93-94.

² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2001. – 2-ж. – Б. 13.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 2-ж. – Б. 658.

⁴ Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б.203.

⁵ Бу ҳақида қаранг. Аширов А. Ўша асар, 198-бет.

⁶ Ислом. Справочник. – Тошкент, 1987. – Б.57.

bordir” yoki “bu kuni qanday niyat qilinsa, u ijobat bo’ladi” deb qaralgan. “Bibi Chorshanba” ni “Bibi Mushkulkushod” deb atashlari ham shu qarashlar bilan bog’liq. Aksariyat ayollar o’sha kuni mushkulkushod marosimi o’tkazib, unda Qur’on tilovat qiladilar.

Qashqadaryo va Surxondaryo o’zbek shevalarida *biyimushkul* // *buvimushkul*, *biyiseshanba* // *biyiseshamba*, *biyishanba* kabi etnografizmlar kuzatiladi.¹ **Biyishanba** (Kitob, Shahrisabz) *bibishanba* etnografizmining dialektal varianti bo’lib, *kelin tushirib keltirilgan uydagi chimildiqni yig’ish marosimini* anglatadi. Bu odat nikohdan bir necha hafta yoki bir necha oy o’tgach bo’lib o’tadi. Bu marosimga kelin va kuyovning yaqin ayol qarindoshlari qatnashadi. SHuningdek, kelin tushirib keltirilgach, uni uyga olib kirish paytida salomnoma o’quvchi keksaroq ayol *biyixalfa* // *biyxalpa* deb ataladi.² Tahlillardan anglashiladiki, *Bibi Seshanba*, *Bibi Mushkulkushod*, *Bibi SHanba* kabi **agionim (muqaddas nom)lar** va ular bilan bog’liq **etnografizmlar** – urf-odat, marosim nomlari homiy ayol kultiarlari, ularga e’tiqod, chuqur hurmat-e’tibor mahsuli bo’lib, *bibi* so’zining *mo’tabar*, *hurmatli* semalari asosida yuzaga kelgan va turli dialektal variantlarda barcha o’zbek shevalarida faol qo’llanadi.

Sirli masjid nomli ekklezioneimlar. Ayrim tadqiqotchilar nekronimlar sirasiga mozar, qabriston nomlari bilan bir qatorda masjid, turli ziyoratgoh nomlarini ham kiritadilar,³ biroq bunga qo’shilib bo’lmaydi. Diniy marosimni ado etish uchun to’planadigan joylarning, jumladan, masjid, cherkov, monastir va boshqalarning atoqli nomlari **ekklezioneimlar** (yun. eklektikos – yig’ilish, to’planish joyi + onoma – atoqli ot) hisoblanadi.⁴ Masalan, *Ko’k To’nli ota masjidi*, *Guzar masjidi*, *G’urumsaroy masjidi*, *Mahdum Eshon masjidi*, *CHodak masjidi*, *G’o’zapoya masjidi*, *Sirli masjid* kabi.

Sirli masjid nomli ekklezioneimlar Farg’ona vodiysi uchun xarakterlidir. Birgina Namangan viloyatida 5 ta: Namangan tumanining Tepaqo’rg’on, Qo’qon

¹ Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 16-17.

² Каранг. Мирзаев Н. Ўша луғат, 17-бет.

³ Каранг. Аслонов А. С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс.. автореф. – Тошкент, 2005. – Б. 15.

⁴ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 93.

qishloqlarida, To'raqo'rg'on shahrida, Chortoq tumanining Ko'shan qishlog'ida, Chust tumanining Olmos qishlog'ida **Sirli masjidlar** bor.

Mazkur Sirli masjidlarning hammasi viloyatdagi tarixiy nomlar sirasiga kiradi. Namangan tumanining Tepaqo'rg'on qishlog'idagi Sirli masjid 1910 yilda, To'raqo'rg'on shahridagisi 1880 yilda, Chortoq tumanining Ko'shan qishlog'idagisi XVIII asr boshlarida qurilgan, 1892 yilda Qanoat eshon degan kishi tashkilotchiligida hashar yo'li bilan ta'mirlangan, Chust tumanining Olmos qishlog'idagi masjid 1882 yilda qurilgan.¹

Sirli masjidlarning mashhuri Namangan tumanining Tepaqo'rg'on qishlog'idagisidir. Uning bunyod etilish sanasi manbalarda turlicha qayd etiladi. Yozuvchi Abdulla Jabbor uni 1840 yilda qurilgan deb ko'rsatsa, B. Ro'zinov va boshqalar 1910 yilda qurilganligini qayd etganlar. Bizningcha, B. Ro'zinovlarning fikri masjid ayvonida saqlanib qolgan *"Arabiy sana 1328, Mulla Husanboy usta Abdurazzoq"*² yozuviga asoslanganligi bois asosli. Demak, masjid 1910 yilda qurilgan.

Masjid tarhiga ko'ra nomutanosib bo'lib, to'g'ri to'rtburchak tarhli, 2 ustunli xonaqoh va sathi undan ancha katta bo'lgan ikki tomonlama qurilgan ayvondan iborat. Ayvon va xonaqoh devorlariga cho'qqisimon mehroblar ishlangan. Xonaqoh bezaksiz, ammo ayvon turli naqshlar bilan serhasham bezatilgan, shifti havozasi va ustunlar tepasi muqarnasli qoshlar, rango-rang gulli naqshlar hamda bezakli poyustunlar bilan ziynatlangan. Devorlarining yuqori tomonlari enli handasiy naqshlar bilan hoshiyalangan. Demak, masjid ayvoni va uning peshtoqlariga sir, ya'ni bo'yoq bilan ishlov berilgan.

Tahlillardan anglashiladiki, yuqorida keltirilgan mushtarak nomlarning barchasi diniy ibodat joyining atoqli nomi ekanligi bois ekklezioneimlar guruhiga mansub bo'lib, *sirli, masjid* ma'noli qismlaridan tarkib topganligiga ko'ra qo'shma tarkibli, nomlanish motiviga ko'ra ob'ektning qurilish uslubi asosida atalgan nomlar turiga kiradi.

¹ Қаранг. Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган, 2013. – Б.69-70.; Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. - Наманган, 2011. – Б. 211-212.

² Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Ўша асар, 70-бет.

Sirli masjid ekklezionimining lug'aviy asosini tashkil etuvchi sirli so'zi o'zbekcha bo'lib, *sir* (yaltiroq mineral yoki moybo'yoq) yoki *emal'* bilan qoplangan, *sirlangan*,¹ *masjid* so'zi esa *sajda qilinadigan, namoz o'qiladigan joy; ibodatxona* degan ma'noni anglatadi.² Ekklezionimlarning barchasi *sirli, sirlangan, ya'ni bo'yoq bilan ishlov berilgan ibodatxona* degan toponimik ma'noga ega. Nom tarkibidagi *masjid* lug'aviy birligi bu o'rinda ekklezionimik indikator bo'lib, *sirli* apellyativiga qo'shilib uni mana shunday obe'kt nomini ifodalashga xoslash bilan birgalikda ekklezionim turini ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

Chilla tarkibli agiotoponimlar. *Chilla* so'zi "qirq" ma'nosini anglatuvchi tojikcha *chil* sanoq soni bilan *-a* qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan bo'lib, qo'shimcha qo'shilganidan keyin *l* tovushi qatlangan. Bu ot *qirq kun* ma'nosini anglatadi.³

Chilla so'zi o'zbek tilining barcha taraqqiyot bosqichlarida kuzatiladi. So'z eski o'zbek tilida quyidagi ma'nolarni anglatgan:

- 1) *chilla* – qirq kun o'tirish:

Va aning Chillasidin bird aha o'tti.

Nasoyimul-muhabbat, XV-173;

- 2) *chilla* – kamonning ipi; girish:

Tori sirishkim Chekib dard qadim qildi ham,

O'ylakim, el Chillani tortib etar yoyi ko'j.

Xazoyinul-maoniy, II b-111.⁴

Chilla so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'p ma'noli so'z sifatida quyidagi ma'nolarda ishlatiladi:

1. Yilning eng issiq yoki eng sovuq qirq kuni. *Chilla kirdi.*

2. *etn.* Bola tuqqan yoki tug'ilgandan, qiz turmushga chiqqanidan, yigit uylangandan, marhum ko'milgan kundan keyingi qirq kunlik davr; turmushdagi

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 3-ж. – Б.523.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. - 2-ж. – Б.550.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, – Б. 252.

⁴ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1984, III том. – Б. 466.

ba'zi hodisa-holatlarning eng og'ir, xatarli yoki mas'uliyatli davri. *Chaqaloqning chillasi chiqqach, yangi uyga ko'chib bordilar* "Yoshlik".

Chaqaloqning chillasi chiqqach, yangi uyga ko'chib bordilar "Yoshlik".

3. *Din*. Sufiy yoki muridning yakka o'zi alohida xona (hujra) da, odamlardan yashirib, qirq kun davomida toat-ibodat qilishi.¹

O'zbek tilida shu so'z asosida yasalgan *chilla o'tiriladigan uy* ma'nosidagi yasama *chillaxona* so'zi ham bor.²

Chillamozor qabristoni – Popning Uyg'ur qishlog'i³ hududida joylashgan antik va o'rta asrlar yodgorligi. Maydoni 300 kvadrat metr, tuproqli tepalik. Ayrim manbalarda nekronim Chillamozortepa shaklida kuzatiladi. U yerda qadimiy qayroqtoshlarga yozuv bitilgan qabrtoshlari mavjud bo'lib, ayrimlari sindirilgan. Ilmiy jihatdan o'rganilmagan va tadqiqot olib borilmagan.

Nekronimga ana shu *chilla* so'zi, aniqrog'i uning *sufiy yoki muridning yakka o'zi alohida xona (hujra)da, odamlardan yashirib, qirq kun davomida toat-ibodat qilishi* ma'nosi lug'aviy asos bo'lgan. Demak, nekronim uch asosli nom bo'lib, *chilla, mozor, qabriston* otlarining qo'shiluvidan ot+ot+ot modelida yasalgan. Nekronim *chillada o'tirilgan kishi mozoridan iborat qabriston* degan toponimik ma'noga ega.

Mazkur nekronim keyinchalik gidronimni tug'ilishiga asos bo'lgan. **Chillamozor bulog'i** Pop tumanidagi sobiq "Sirdaryo" jamoa xo'jaligi yerlarining janubiy qismida, Chillamozor yonida joylashgan. Nomi mozorga nisbat berib, Chillamozor bulog'i deb ataladi. Sizot qatlamlarini o'tkazmaydigan qatlamga yetib borgach, sizib chiqadigan buloqdir. Aytishlaricha Chustdagi Mavlono buva buloqlari bilan bog'liq bo'lib, Hazrati Ali hassalari o'rnidan otilib chiqqan, deyishadi. Suv sarfi sekundiga 8 litr. Suvi iste'mol va ekinlarni sug'orish uchun ishlatiladi.⁴ Demak, nekrogidronim *Chillamozor yonidagi buloq* degan toponimik ma'noga ega.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, IV жилд. – Б. 484.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, IV жилд. – Б. 484.

³ Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. – Наманган, 2011. – Б. 217.

⁴ Абдулла Жаббор. Наманган вилояти. – Наманган, 2011. – Б. 50.

Chillaxona maqbarasi Namangan tumanining Mullakuding qishlog'ida Namangan – Jomashuy yo'lining o'ng tomonida joylashgan. Mullakuding qishlog'idan sal yuqoriroqdagi qabristonda pastakkina qilib qurilgan kichkina gumbazli maqbara. Maqbaradagi qabrtosh bo'lib, undagi yozuvlardan anglashilicha, turkistonlik Hoja Ahmad Yassaviy avlodlaridan bir Shayx Ne'matulloh Hoja Eshon Turkistondan Namanganga XVIII asrning ikkinchi yarmida kelib, shu yerda yashab qolgan, qabristonga dafn etilgan. Bu toponimga chillaxona so'zi lug'aviy asos bo'lgan. Nom chillaxonali maqbara degan toponimik ma'noga ega.

Xalfa chaqqon chillaxonasi – Namangan shahrining kurashxona dahasidagi qadimiy me'moriy obidalaridan biri. Mazkur yodgorlik nomi antroponim – nom, laqab va indikatorlardan tarkib topgan qo'shma tarkibli ekklezionim. U XVII asrning ikkinchi yarmida yashagan namanganlik ilmiy avliyo, epchil va chaqqon, shu bois Xalfa chaqqon laqabini olgan kishi nomiga nisbat berib, shunday atalgan. Nom *Xalfa chaqqon laqabli kishiga qarashli chillaxona*, ya'ni *chillada o'tirish joyi* degan ma'noga ega. Demak, nom tarkibidagi *chillaxona* so'zi ekklezionimik indikator sifatida antroponimni toponimlikka xoslash bilan birgalikda uni turini, ya'ni diniy urf-odatni bajarish joyi ekanligini ifoda etmoqda. Ekklezionimni manbalarda *Halfa chaqqon chillaxonasi* tarzida, ya'ni bo'g'iz tovushini ifodalovchi h harfi bilan xato yozish kuzatiladi, imlo qoidalariga ko'ra, nom yuqoridagi berganimizdek yozilishi lozim.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da *tapa* so'zining quyidagi ma'nolari qayd etilgan:

1. Er sathidan baland, do'ng joy; tepalik, balandlik.

Tapa asli relifni ifodalovchi geografik termin bo'lib, yer sathidan baland, yonbag'irlari qiya bo'lgan do'ng joy ma'nosini anglatadi. Shuningdek, **tapa** keyinchalik arxeologik termin sifatida *paxsadan ishlangan qadimiy inshootlarning xarobalari va ularni to'ldirgan ma'daniy qatlamlardan hosil bo'lgan do'nglik* ma'nosida ham qo'llanmoqda. Arxeologik yodgorliklarning ushbu turi O'rta Osiyo va Kavkazda (tapa), Yaqin sharqda (arab. – tel', tall), Hindistonda va Bolqon

yarim orolida (yun. – magula, makedoncha tumba) uchraydi. (*Namozgohtepa, Sopollitepa* va b.)¹ Geografik joy nomlari tarkibida ham tepa indikatori ko'p uchraydi O'zbek toponimiyasida tepa shaklli nomlar qadimdan tipik model hisoblanadi: *Shoshtepa, Uchtepa, Oqtepa, Oltintepa, Qo'rg'ontepa, Qoratepa* kabi.

Tepalar aslida oronimlar sirasiga kiradi.

Biz Namangan viloyati bo'yicha takrorlari bilan 60 dan ziyod tepaliklarning atoqli nomlarini to'pladik: *Balandtepa, Bo'ritepa, Gurunchpoyatepa, Dutortepa, Do'stsoytepa, Zo'rtepa, Ilontepa, Isqo'rg'ontepa, Ko'ltepa, Marg'uzortepa, Munchoqtepa, Mug'tepa, Mirzayortepa, Mozortepa, Mushukteshgantepa, Novjartepa, Nog'oratepa, Ovchibuloqtepa, Oqgumaztepa, Otaxontepa, Oqtepa, Oqertepa, Sarqal'atepa, Surmohtepa, To'xtamatepa, Tillatepa, Toqaltepa, Tolmozortepa, Toshloqtepa, Yortepa, O'rdatepa, Uchyog'ochtepa, Uchtepa, Xo'jabodtepa, Shomozortepa, Eskitepa, Yumoloqtepa, Yakkatepa, Yakkatuttepa, Yapqoltepa, O'rtatepa, Qo'rg'ontepa, Qo'shtepa, Quyuqtepa, Qozoqovultepa, Qo'rg'onchatepa, Qurg'ontepa, G'urumsaroytepa, Hojiobodtepa* kabi.

Tepalar ham odatda agiotoponimlar sirasiga kiradi. Mazkur tepalar o'tmishda harbiy istehkomlar, shaharlar, qabristonlar bo'lganligi bois hozirda me'moriy, arxeologik yodgorliklar sirasiga kiradi va xalq tomonidan e'zozlanadi. SHu nuqtai nazardan mazkur tepa nomlarining salmoqli qismi agiotoponimlar hisoblanadi.

Agiotoponim (yunoncha – agio - *muqaddas*, toponim - *joy nomi*) joylarning agionomdan yasalgan atokli otlaridir.² Demak, Namangan agiotoponimiyasida tepa tarkibli nomlar salmoqli o'rin tutadi. *Beshiktepa* (Chust t. Axcha q., Shoyon q.), *Burgutlitepa* (Pop t. Chorkesar q.), *Gurunchpoyatepa* (Chust t. Varzik q.), *Dutortepa* (Kosonsoy t.), *Do'stsoytepa// Do'stboytepa* (Chortoq t.), *Zo'rtepa* (Yangiqo'rg'on t. Zarkent q.), *Ilontepa* (Yangiqo'rg'on t. Buloqboshi q.), *Ilonuya* (Chust t. Chustnon q.), *Keskanyortepa* (Uychi t. Qizilravot q.), *Kultepa* (Norin t. Haqqulobod sh.), *Kuyuktepa* (Uchqo'rg'on t.), *Marg'uzortepa* (Norin t. Marg'uzor

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2004. – 8-ж. – Б. 379.

² Бегматов Э., Улуков Н. Ўша луғат, 11-бет.

q.) , *Mirgadoy* (Chortoq t. Alixon q.), *Mirzayortepa* (Yangiqo'rg'on t. Nanay q.), *Mozortepa* (Chortoq t.), *Munchoqtepa* (Chust t. Yorqishloq q., Tepaqo'rg'on q.), *Mushukteshgantepa* (Norin t. Tegirmonboshi q.), *Navjartepa* (Kosonsoy t. Qurama q.), *Nog'oratepa* (Kosonsoy t. Tergachi q.), *Otaxontepa* (Yangiqo'rg'on t. Nanay q.), *Oqartepa* (Chortoq t. Peshqo'rg'on q.), *Oqtepa* (Pop t. To'da q.) kabi.

Navjartepa – Kosonsoy tumanidagi tepalik. Toponim *nav* – *yangi*, *jar* – *suv yuvib hosil bo'lgan tik chuqurlik*, *tepa* – *balandlik* kabi uch ma'noli qismlardan iborat bo'lib, *yangi suv yuvishidan hosil bo'lgan chuqurlik yonidagi tepalik* degan toponimik ma'noga ega. Shu hududda joylashgan qishloq ham unga nisbat berish asosida Navjartepa deya nomlangan.

Do'nartepa – Kosonsoy tumanidagi qishloq nomi. Oykonom morfemik jihatdan *do'n*, *-moq*, *-ar*, *tepa* morfemalaridan tarkib topgan, *qiya tepalik*, *balandlab boruvchi tepalik* degan ma'nolarni anglatadi. Shunday tepalikda joylashgan qishloq ham **Do'nartepa** deb ataladi.

3.2. Agitoponim va ekklezionimlarning struktural tahlili

Toponimlarning, jumladan, agiotoponim va nekronimlarning tuzilishiga ko'ra turlari, tiplari toponimik tadqiqotlar doirasida o'zbek toponimistlari N.Oxunov, Z. Do'simov, T. Nafasov, L. G. Karimovalarning ishlarida tadqiq etilgan.¹ Mazkur tadqiqotlarda toponimlarning morfologik tuzilishiga ko'ra turlari talqini borasida bir necha xil qarashlar kuzatiladi.

N. Uluqov fikricha, o'zbek toponimikasidagi toponimlarning morfologik tuzilishiga doir tasniflarni yondashuv asosi va xarakteriga ko'ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Yasalish usuli va modeliga asoslangan tasniflar.
2. Yasovchi vositalar va tarkibiy tuzilishiga asoslangan tasniflar.
3. Tarkibi va tarkibidagi lug'aviy birliklarga asoslangan tasniflar.²

Yuqoridagi tasniflarga asoslangan holda, Namangan viloyati agiotoponim va nekronimlarni tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Sodda tarkibli agiotoponim va ekklezionimlar.
2. Qo'shma tarkibli agiotoponim va ekklezionimlar.
3. Murakkab tarkibli agiotoponim va ekklezionimlar.

Sodda tarkibli agiotoponim va ekklezionimlarning lisoniy tarkibi birgina asosdan, ya'ni sodda leksemadan iborat bo'ladi.³ Masalan, atoqli otdan iborat agiotoponim va ekklezionimlar: *Ravot (Uychi t.)*, *Porosmon (To'ra. t.)*. kabi. *Porosmon* nomining *Talosbon*, *Palosbon* variantlari ham bor.

Biroq viloyat toponimiyasida sodda tarkibli agiotoponim va ekklezionimlar deyarli yo'q. Buni agiotoponim va ekklezionimlar tarkibida doimo maxsus

¹ Охунов Н. Қўкон группа районлари топонимиясининг баъзи грамматик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан, 1971. – С. 116-122; – Ўша муаллифлар. Қўшма топонимлар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1975. – С. 212-218; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 43-59; Нафасов Т. Сон+от конструкцияли топонимлар // Қарши Давлат педагогика институти профессор-ўқитувчилари илмий конференциясининг тезислари. – Қарши, 1967. – Б. 65-66; Каримова Г.Г. Топонимларнинг морфологик тузилиши (Шимолий ўзбек шевалари материали асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. – № 5. – С. 80-81

² Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008 – Б. 178.

³ Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б.69.

indikatorlar, ya'ni *mozor*, *qabriston*, *tepa* kabi so'zlar kelishi bilan izohlash mumkin. Demak, har qanday oddiy so'z agitoponim va ekklezionim bo'la olmaydi.

Tarkibi birdan ortiq lug'aviy asosdan iborat muqaddas joy nomlari **qo'shma tarkibli agitoponim va ekklezionimlardir**. Qo'shma tarkibli agitoponim va ekklezionimlar kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

Qo'shma tarkibli agitoponim va ekklezionimlarning morfologik asosi va shakllanish modeliga ko'ra quyidagi turlari kuzatiladi:

I. Ot+ot modelidagi qo'shma tarkibli agitoponim va ekklezionimlar:

Otbozor (Nam. sh.), *Dashtepa* (Kos. t.), *Mug'tepa* (Kos. t.), *Bo'ritepa* (Uchqo'r.t.), *Ilontepa* (Yangi.t.), *Tolmozor* (Uychi t.), *Langarbuva* (Pop t.) kabi.

II. Sifat + ot modelidagi qo'shma tarkibli agitoponim va ekklezionimlar:

Sirli masjid (Nam.t.), *Qoratepa* (Kos. t.), *Zo'rtepa* (Yangi.t.), *Yassitepa* (Yangi.t.), *Oqtepa* (Pop t.), *Qiziltepa* (Chust t.), *Dumaloqtepa* (Yangi.t.), *Eskimasjid* (Nam.t.), *Baliqlimozor* (Chust t.) kabi. Bu modeldagi agitoponim va ekklezionimlarni yuzaga kelishida , *eski*, *oq*, *qora*, *yassi*, *dumaloq* *qizil* kabi belgi-xususiyat bildiruvchi maxsus sifatlar faol qatnashgan. Biz to'plagan nomlar orasida *oq*, *qizil*, *yangi* sifatlari qatnashgan nomlarning 8-10 tagacha ekanligi fikrimizning dalilidir.

III. Ot + ot modelidagi qo'shma tarkibli agitoponim va ekklezionimlar.

Namangan viloyati agitoponim va ekklezionimlarni **ot+ot** modelidagi oykonimlarni o'z ichida quyidagicha guruhlash mumkin:

a) turdosh ot + tepa formanti modelidagi qo'shma tarkibli agitoponim va ekklezionimlar: *Yortepa* (Kos. t.), *Nog'oratepa*, *Kultepa* (Kos. t.), *Qo'rg'ontepa* (Pop t.), *O'rdatepa* (Yangi.t. Navkent QFY), *Tillatepa* (Yangi.t. Navket QFY), *Munchoqtepa*(Chust t. Yorqishloq MFY) kabi;

v) atoqli ot + tepa formanti modelidagi qo'shma tarkibli agitoponim va ekklezionimlar: *Berdixo'ja tepa* (Yangi.t. Nanay QFY), *Niyozbektepa* (Uychi t. Qizilravot q.), *Do'stboytepa* (Chor., Navoiy MFY), *Abdumajidhojitepa* (Yangi.t. Nanay QFY), *Marg'uzormozor* (Pop t. Marg'uzor QFY) kabi.

Shuningdek, **sifat+tepa formanti modelidagi agitoponim va ekklezionimlar:** ham kuzatiladi: *Yorqintepa* (Kos.t.), *Yaydoqtepa* (Nor. t.),

Nomsiztepa – 1, Nomsiztepa – 2, Nomsiztepa -3 (Uychi t. G'ayrat, Yangiobod, Yorkatay QFY), *Yumoloqtepa* (Ming. t. Gurtepa QFY), kabi.

Keltirilgan dalillardan ko'rinadiki, hudud toponimiyasida *tepa* tarkibli agitoponim va ekklezionimlar takrorlari bilan 100 dan ziyod. Bu hozirgi viloyat toponimiyasida, jumladan, hudud agitoponim va ekklezionimlari guruhida *tepa* formanti bilan, xususan, **ot+tepa, sifat+tepa, son+tepa formanti** modelida agitoponim va ekklezionimlar yasash faolligini ko'rsatadi.

V. Son + ot modelidagi qo'shma tarkibli agitoponim va ekklezionimlar:

Uchtepa (Nor.t., Chor.t.), *Uchtepa – 1, Uchtepa – 2, Uchtepa – 3* (Nor.t.), *Qo'shtepa* (Yangi.t., Chust t.), *Qo'shtepa – 1, Qo'shtepa – 2* (Chust t.), *Yakkatepa* (Chust t.) kabi.

Son tarkibli agitoponim va ekklezionimlar asosan ***uch, qo'sh, yakka*** so'zlari asosida yasalgan.

Qo'shma tarkibli agitoponim va ekklezionimlar morfologik tarkibida ikkinchi komponent sifatida indikatorlar faol qo'llanadi: *Chodakmozor* (Pop t.), *Chillamozor* (Pop t.), *Uyg'urmozor* (Pop t.), *Qizmozor* (To'ra. t.), *Buloqmozor* (Nor.t.), *Terakmozor* (Uchqo'r.t.), *Jome' masjidi* (Kos. t.), *G'o'zapoya majmui* (Kos. t.) kabi. Ularning tuzilishi ham albatta, yuqoridagi modellarda.

Qo'shma va murakkab toponimlar tarkibida qo'llanib, ob'ekt turini hamda qanday toponim turiga mansubligini ko'rsatuvchi lug'aviy birliklar toponimik indikatorlar hisoblanadi.¹

Har bir til toponimiyasida indikator vazifasida qo'llanuvchi lug'aviy birliklar mavjud.

Agitoponimik, nekronimik va ekklezionimik indikatorlar boshqa indikatorlar kabi quyidagi onomastik vazifalarni bajaradi:

- 1) oykonim ifodalayotgan ob'ektning turini ko'rsatadi, konkretlashtiradi;
- 2) qo'shma, murakkab tarkibli oykonimlarning shakllanishida bir komponent sifatida keladi va ob'ektni nomlashda qatnashadi;
- 3) ob'ektni xarakterlaydi;

¹ Каранг. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М: Наука, 1989. – С. 125.

4) ob'ektni boshqa shunday ob'ektlardan farqlaydi.¹

Namangan viloyati qo'shma tarkibli indikator asosida yuzaga kelgan agitoponim va ekklezionimlarni o'z ichida quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Tepa tarkibli qo'shma agitoponim va ekklezionimlar: *Uchtepa* (Uchqo'r., Norin t.), *Qo'shtepa* (Uchqo'r., Chor., Yangi. t.) kabi.

2. Mozor tarkibli qo'shma agitoponim va ekklezionimlar: *Shomozor* (Pop t.), *Gultepamozor* (Uchqo'r. t. Ozod MFY), *Buloqmozor* (Nor. t.), *Zirkmozor* (Chor. t. Alixon q.), *Chillamozor* (Pop t. Uyg'ur q.), *Uyg'urmozor* (Pop t.), *Kuyukmozor* (To'r.t Kuyukmozor q.), *Shomozor* (Pop sh.), *Tirikmozor* (Pop t. G'urumsaroy q.) kabi.

3. Maqbara tarkibli qo'shma agitoponim va ekklezionimlar: *Alkomacha maqbarasi* (Chor. t. Koroskon q.), *Oqtom sahoba maqbarasi* (Yangi.t. Oqtom QFY), kabi.

4. Ziyoratgoh tarkibli qo'shma agitoponim va ekklezionimlar: *Chinorbobo ziyoratgohi* (Kos. t.) kabi.

5. Masjid tarkibli qo'shma agitoponim va ekklezionimlar: *Atoullohxon to'ra masjidi* (Nam. t.), *To'da masjidi* (Pop t.),

Toponimlar yasalişida ishtirok etuvchi lug'aviy birliklar topoleksemalar deb yuritiladi. Topoleksemalar tarixan mustaqil leksik birlik bo'lib, davr o'tishi bilan affiksga yaqinlashib, o'z lug'aviy ma'nosini ma'lum darajada yo'qotgan so'zlardir. Bunday til birliklarining xususiyatlari haqida turlicha fikrlar mavjud. B.A.Serebrennikov bunday birliklar haqida fikr yuritib: "Toponimika ma'lum tilning so'z yasaliş modelida shunday so'zlar yaratadiki, ular tilda hech qanday ma'no anglatmaydi. Mazkur so'zlar topoleksemalar deb nomlanishi mumkin", – deb yozadi.² A.L.Xromov fikricha, topoleksemalarga ikki turdagi morfemalar kiradi:

a) toponimlar tarkibidan boshqa o'rinda uchramaydigan morfemalar;

¹ Бу ҳақда яна қаранг. Ражабов Ў. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари: филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2009. – 24 б.; Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: филол. фан. доктори. ... дис., Тошкент, 2010. – Б. 49-95.

² Серебренников Т.А. О методах изучения топонимических названий // Вопросы языкознания. – М, 1959. – №6. – С.37.

b) qachonlardir konkret tilda ishlatilib, keyinchalik iste'moldan chiqqan hamda toponimlar tarkibidagina saqlanib qolgan morfemalar.¹ Masalan, *Bulgadaraztepa* (Pop t.), *Shaydontepa* (Nor. t.), *Gungalak* (Koson. t.) kabi.

Bu Namangan viloyati toponimiyasining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'z navbatida, boshqa viloyatlar toponimiyasidan farqlovchi belgi hamdir.

Qo'shma tarkibli Namangan viloyati agitoponim va ekklezionimlari guruhida uch asosli nomlar ko'p uchraydi: *Xo'jaobodtepa* (Pop t. Xo'jaobod QFY), *G'ishtmozortepa* (Pop t. To'da QFY), *Go'dakmozortepa* (Norin t. Haqqulobod sh.) kabi.

Bunday qo'shma tarkibli nomlarni tuzilishiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1) **ot+ot+ot modelidagi nomlar:** *Tariqmozortepa* (Uychi t. Qizilravot q.), *Ovchibuloqtepa* (Uychi t. O'nxayat q.), *G'urumsaroytepa* (Pop t. G'urumsaroy QFY), *Laylakuya masjidi* (Chust t. Karkidon MFY) kabi. Bu model asosida hosil bo'lgan nomlar turli so'zlarga *tepa*, *mozor* kabi topoformant va indikatorlarini qo'shiluvidan iborat bo'ladi.

2) **sifat+sifat+ot modelidagi nomlar:** *Ko'kto'nli ota* (Chust t. Xo'jaobod MFY),

VII. Izofali birikma modelidagi qo'shma tarkibli agitoponim va ekklezionimlar. Namangan viloyati aholisining etnik tarkibi asosan turkiy xalqlar, ularning qipchoq urug'laridan iborat bo'lishi bilan birga, hududning ma'lum qismlarida tojik millati vakillari ham yashashadi. Tumandagi bu etnik holat oykonimlarlar shakllanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligi sababli toponimik so'z yasalishida forsha-tojikcha qatlam ham, oz bo'lsada ishtirok etgan. Masalan, *Hazrati Bob qabri* (Pop sh.), *Sadpiri Komil* (Kos. t.), *Mahdumi A'zam ziyoratgohi* (Kos. t.), *Shayxulislom masjidi* (Kos. t.) kabi.

Murakkab tarkibli agitoponim va ekklezionimlar. So'z birikmasi va gap shaklidagi mozor, ziyoratgoh, masjidlarning nomlari murakkab tarkibli agiot-

¹ Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. Вып. 1. – Душанбе: Ирфон, 1975. – С. 4.

oponim va ekklezionimlar hisoblanadi: *Otchoparbuva xonaqosi* (Chust t.), *Mulla Xudoyberganboy masjidi* (Chust t. Axcha QFY), *Xo'ja Abdurahmon ibn Avf masjidi* (Chust t. Toshqo'rg'on q.), *Sulton Said Jaloliddin maqbarasi* (Chor. t. Koroskon q.), *Sherqurbonvali mozori* (Uychi t. G'ayrat QFY) kabi.

III bob bo'yicha xulosa

1. Agiotoponim va ekklezionimlarning etimologik tahlili nomning lug'aviy asosi, toponimik ma'nosi va ijtimoiy-siyosiy, madaniy, diniy hamda etnografik tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

2. Qo'shma tarkibli agiotoponim va ekklezionimlar morfologik tarkibida ikkinchi komponent sifatida indikatorlar, ya'ni *mozor*, *qabriston*, *tepa kabi so'zlar* faol qo'llanadi. Bu agiotoponim va ekklezionimlar morfemik o'ziga xosligidir.

3. Agiotoponim va ekklezionimlarning deyarli barchasi tuzilishiga ko'ra qo'shma tarkibli bo'lib, ularning tarkibida o'zbek xalqiga xos hurmat-e'tibor, e'zoz motivlarini ifodalovchi *valiy*, *sayid*, *eshon*, *xo'ja* ijtimoiy-siyosiy terminlar bilan bir qatorda *bobo*, *ota*, *ona*, *buvi* kabi lug'aviy birliklar qo'llanadi.

4. Qo'shma tarkibli Namangan viloyati agiotoponim va ekklezionimlari guruhida uch asosli nomlar ko'p uchraydi: *Xo'jaobodtepa* (Pop t. Xo'jaobod QFY), *G'ishtmozortepa* (Pop t. To'da QFY), *Go'dakmozortepa* (Norin t. Haqqulobod sh.) kabi.

Umumiy xulosalar

1. Agiotoponim va ekklezionimlarning lisoniy tadqiqi aholining etnik tarkibi va takomili, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy turmushi, yashash tarzi hamda diniy e'tiqodi, urf-odatlar haqida lisoniy-tarixiy ma'lumotlar olish imkonini beradi.

2. Agiotoponim va ekklezionimlarni o'zi ifodalayotgan hududni, joyni ilohiylashtirib, u yerdagi tabiatni, moddiy, ma'naviy boyliklarni muhofaza qilishga, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishga undaydi, sokin va osoyishta muhitni ta'minlash vazifasini bajaradi. Bu agiotoponim va ekklezionimlarning ekologik funksiyasi, sotsiolingvistik vazifasi va mohiyatidir.

3. Viloyatidagi madaniy, me'moriy, muqaddas sanaluvchi ob'ektlarni nomlashda xalqchilik, soddalik, milliylik, mutanosiblik an'analari kuzatiladi.

4. Agiotoponim va ekklezionimlarning etimologik, nominativ-motivativ tahlili qadimiy, tarixiy muqaddas joylarni, ziyoratgohlarni nomlashda hududga xos xarakterli belgi-xususiyatlar, asosan, aholining etnik tarkibi, kishilarning atoqli nomlari, ularga mansub aholi manzillarining nomlari, ya'ni toponimlar, xususan, oykonimlar e'tiborga oliniganligini ko'rsatadi.

5. Hudud nekronimiyasi uchun yana bir xarakterli jihat shundaki, ob'ektlarni salmoqli qismi antroponimlar, ya'ni kishi nomlari bilan atalgan, bunda mozor yoki qabristonni bunyod etgan, unga birinchi dafn etilgan ulug', mo'tabar, aziz, diniy martabali *said*, *eshon*, *xo'ja* tabaqasidagi kishi nomlari asosga olingan yoki aniq kishi ismi qo'llanmasa-da, diniy tabaqa ifodalovchi birliklarga e'zozlash, hurmat semalarini ifodalovchi *buva*, *bobo*, *buvi*, *ota* kabi so'zlarning qo'shish bilan atoqli nomlar hosil qilingan.

6. Mahalliy aholini etnik tarkibini ifodalovchi ayrim nomlar – etnonimlar jamiyat taraqqiyoti ta'sirida yo'qolib borsada, agiotoponim va ekklezionimlar tarkibida toponimik leksikonda saqlanib qolgan.

7. Hududga xos agiotoponim va ekklezionimlari asosan tarixiy *tepa* topoformanti, *mozor*, *maqbara*, *masjid* indikatorlari vositasida yuzaga kelgan va lisoniy shakllangan.

8. Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston toponimiyasida bo'lgani singari hudud agiotoponim va ekklezionimlarining lug'aviy asosida ham arab, fors-tojik tili unsurlari kuzatiladi.

9. O'zbekistonning istiqlol davri toponimik siyosati viloyat agiotoponim va ekklezionimlarining o'rganilishiga, ularga e'tibor ortishiga asos bo'ldi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Каримов И. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
3. Абдулла Жабор. Наманган вилояти. Ихчам маълумотлар тўплами. – Наманган, 2011.
4. Абдурахмонов. М. Задарёнома. – Жомашўй, 1992. – 48 б.
5. Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. – Тошкент: Маънавият, 1990.
6. Алиев А., Акрамова Х. Из наблюдений топонимов Наманганской области // Материалы по конференции ономастики Узбекистана. – Джизак, 1985. – С. 9-10.
7. Алиев А. Наманган топонимиясидан // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 3-9.
8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – I-IV жилдлар.
9. Асланов А. С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили: Фил. фан. ном. ... дис. автореферати. – Тошкент, 2005. – 24 б.
10. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007.
11. Аҳмадалиев Ю. И. Фарғона вилояти топонимлари. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2009. – 140 б.
12. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – 352 б.
13. Бегимов О. Т. Форсий изофали топонимлар // Тил ва адабиёт таълими, 1992. – №2. – Б. 6.

14. Бегимов О. Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашган катлами: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 27 б.
15. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
16. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 64 б.
17. Бегматов Э. Истиклол даври топонимик сиёсатининг илмий принциплари // Филология масалалари, 2004. – №4.
18. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изохли луғати. – Наманган, 2006. – 103 б.
19. Девону луғотит – турк. Индекс – луғат / Ғ.Абдурахмонов ва С. Муталлибоев иштироки ва таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – 550 б.
20. Дониёров Ҳ. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – 97 б.
21. Дониёров Ҳ. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 160 б.
22. Дўсимов З. Топонимик индикаторлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. – №5. – Б.71-74.
23. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изохли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 174 б.
24. Дўсимов З. Топонимлар номинациясида нисбийлик принциплари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1984. – №4. – Б.12-15.
25. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б.
26. Жамоа. Бибионага муносабатимиз қандай // Чуст ҳақиқати, 2004, 10 сентябрь, № 37. – Б. 3.
27. Жувонмардиев А. XVI-XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965. – 184 б.
28. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б. + 32 б. Зарварақ.

29. Ибрат. Фарғона тарихи («Мерос» туркуми. Масъул муҳаррир, сўз боши муаллифи: Хуршид Даврон). – Тошкент: Камалак, 1991. – 327 б.
30. Ипак йўли афсоналари (жой номлари билан боғлиқ афсоналар). Тузувчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: М. Жўраев. – Тошкент: Фан, 1993. – 128 б.
31. Иномов Ш. Попим – саховатли юртим. – Наманган, 1996.
32. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977.
33. Каримова Л.Г. Баъзи топонимларнинг этимологиясига доир // Научные труды ТошГУ. – Тошкент, 1976. – № 501. – Б.117-120.
34. Каримова Л.Г. Топонимларнинг морфологик тузилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. – №5. – Б.80-81.
35. Латыпов Д. Топонимия города Маргилана и его окрестностей (лингвистический анализ): Автореферат дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 36 с.
36. Мамедов М. Халқ номлари жой номларида. – Тошкент: Фан, 1981. – 48 б.
37. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 3 томлик. – Тошкент: Ўз. ... Фанлар акад. нашр., 1960. – I т. – 499 б.
38. Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 16-17.
39. Мирзалиев Э.Ю., Базарова М.Т. Наманганнинг XI аср охири – XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий ривожланиши. – Наманган. 1998.
40. Мирортиқ Мирабдулла ўғли. Жуғрофий атамалар луғати. – Тошкент: Фан, 1992. – 56 б.
41. Муродов М., Шайхова М. Асотирлар ва ривоятлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990, 1-китоб.
42. Нажмиддин Файзиддин ўғли, Муҳаммад Ҳаким, Жўрахон Муҳаммад Ҳофиз ўғли. Чуст тарихи. – Чуст, 1995. – Б. 13-15.

43. Найимов С. Топонимик индикаторлар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1983. – №4. – Б. 63-64.
44. Наманган вилояти қомуси сўзлиги (муҳокама учун). – Наманган, 1992.
45. Namangan viloyati. Siyosiy-ma'muriy ma'lumotnoma karta. – Toshkent: Yergeodezkadastr, 2006.
46. Наманган туманининг ўтмиши ва бугуни. – Тошкент: Университет, 1996. – 152 б.
47. Наманганская область: Справочная политико-административная карта. – Ташкент: Узгеодезкадастр, 1996.
48. Наманган вилояти// Ўзбекистон вилоятлари, Қорақалпоғистон (маълумотнома). – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1995.
49. Нафасов Т. Қишлоғингиз нега шундай аталган? – Тошкент: Фан, 1989. – 100 б.
50. Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент: ТДПИ нашр., 1985.
51. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Мухаррир, 2009.
52. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқи сўзлари. – Тошкент: Мухаррир, 2011.
53. Орипов Б. Н. Куймозор. – Наманган, 1997.
54. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 86 б.
55. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 56 б.
56. Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005. – 91 б.
57. Охунов Н., Аҳмадалиев Ю. Фарғона вилояти ойконимларининг номланиш хусусиятлари. – Фарғона, 2010.
58. Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997. – 130 б.

59. Раҳимова М. В. Косонсой тарихидан лавҳалар. – Косонсой, 1996.
60. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
61. Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган, 2013. – 116 б.
62. Санаев И. Бу кўҳна дунё. – Тошкент: Адолат, 1996 .
63. Санакулов Х. Чуст. – Тошкент, 1991. – 52 б.
64. Содиқ Сайхун. Бугун кечанинг эртаси. – Тўрақўрғон, 1992.
65. Турдалиев Б., Нуъмонов Т., Ҳайдаров А. Наманган вилояти топонимларидан материаллар. – Наманган, 1995. – 1-к. – 122 б.
66. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010.
67. Учқўрғон тарихи. – Учқўрғон, 1995.
68. Учқўрғон тумани (маълумотнома). – Учқўрғон, 1995. – 164 б.
69. Чортоқ тумани тарихи. – Тошкент: Университет, 1995. – 222 б.
70. Чуст тумани тарихи. – Чуст, 1995. – 180 б.
71. Янгиланаётган Наманган. – Наманган, 2011.
72. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006 – 2008. – 5 жилдлик.
73. Ўзбекистон Республикасининг “Географик объектларнинг номлари тўғрисида”ги Қонуни. – Халқ сўзи, 2011, 13 октябрь, № 198. – Б. 1-3.
74. Қирғизов Ю., Акрамов Т. Бир ўлкаки... (Янгиқўрғон тумани тарихидан лавҳалар). – Наманган, 1996. – 222 б.
75. Қораев С. Наманган вилояти топонимлари // Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 91-94.
76. Қосимов Й. Наманган воҳасини суғорилиш тарихидан. – Тошкент: Фан, 1988.